2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 211 (1000), 2023-yil 12-oktabr, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

“INDORAMA CORPORATION” KOMPANIYASINING MAMLAKATIMIZDAGI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH REJALARI QO‘LLAB-QUVVATLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-oktabr kuni Singapurning “Indorama Corporation” kompaniyasi asoschisi va raisi Shri Prakash Loxiya boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining kimyo, to‘qimachilik va qishloq xo‘jaligi sohalarida yirik investor va muhim texnologik hamkor bo‘lgan ushbu kompaniya bilan o‘zaro manfaatli sheriklikni yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlash joizki, “Indorama Corporation” tomonidan mamlakatimizda paxta tolasini yetishtirish va chuqur qayta ishlashga qaratilgan yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi. Qo‘qon superfosfat zavodi modernizatsiya qilinmoqda.

Davlatimiz rahbari singapurlik investorning O‘zbekistonda yangi loyihalarni amalga oshirish, shu jumladan, “Farg‘onaazot” aksiyadorlik jamiyati quvvatlarini kengaytirish, tarmoq korxonalarini xususiylashtirish, to‘qimachilik va qishloq xo‘jaligida zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish rejalarini qo‘llab-quvvatladi.

Ushbu loyihalarni amalga oshirish natijasida kompaniyaning mamlakatimizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari umumiy hajmi hozirgi 600 million dollardan 850 million dollargacha oshadi.

Investitsiyaviy hamkorlikning ustuvor loyihalarini ilgari surish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish muhimligi qayd etildi.

O‘zA

TURIZM SOHASI VA “YASHIL MAKON” LOYIHASI DOIRASIDAGI VAZIFALAR MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 11-oktabr kuni turizm va madaniyat maskanlari imkoniyatini to‘liq ishga solish, “Yashil makon” umummilliy loyihasining kuzgi mavsumini tashkil etish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Ma’lumki, turizm iqtisodiyot uchun qo‘shimcha va tuganmas manba. Shu bois, har bir davlat sayyohlarni jalb etishga harakat qiladi. Mamlakatimizda bu sohaga keng imkoniyatlar yaratilayotgani natijasida mehmon o‘rinlari, sayohat joylari va yo‘nalishlari ko‘payib bormoqda.

O‘tgan 8 oyda yurtimizga xorijdan 4 million 300 ming nafar turist kelgan, ulardan 1 milliard 400 million dollar tushum bo‘lgan. Qo‘shimcha dam olish kunlari va chegirma berilgani natijasida ichki sayyohlar soni 15 million nafarni tashkil qilib, o‘tgan yilgiga qaraganda 2 barobarga o‘sgan.

Turizm infratuzilmasi izchil rivojlanmoqda. Joriy yilda 15 mingta yangi mehmon o‘rinlari tashkil etilib, ularning soni 137 mingtaga yetdi. 540 ta dam olish va ko‘ngilochar maskan barpo etildi, 70 ta turizm marshruti ochildi.

Shuningdek, 6 ta xususiy aviakompaniya ish boshladi, yangi 23 ta samolyot olib kelindi, 20 ta xalqaro va 6 ta ichki qatnov yo‘lga qo‘yildi. Samarqand aeroportida haftalik xalqaro reyslar 46 tadan 85 taga ko‘paydi. 1 ming 300 ta zamonaviy avtobus xarid qilinib, 38 ta yo‘nalish ochildi.

Yig‘ilishda turistlarni ko‘paytirish bo‘yicha yangi imkoniyatlar muhokama qilindi.

Avvalo, qo‘shni davlatlardan, Rossiya va Xitoydan sayyohlarni jalb qilish uchun qulay imkoniyat borligi ta’kidlandi. Xususan, yurtimiz viloyatlari Xitoy provinsiyalari bilan hamkorlik o‘rnatgan. Bundan foydalanib, hududlarimiz turistik salohiyatini targ‘ibot qilib, Xitoydan yiliga 1 million sayyohni jalb qilish mumkinligi aytildi.

Mamlakatimizga uzoq davlatlardan turistlar kelishi ham ko‘paygan. Misol uchun, Hindiston, Yaponiya, AQSH va italiyalik sayyohlar soni 3-4 barobar oshgan. Birgina Xorazmga Ispaniyadan 40 ming turist tashrif buyurgan. Lekin ular tranzit orqali kelayotgani sababli ortiqcha xarajat qilyapti. Agar Madriddan yurtimizga aviareys qo‘yilsa, turoperatorlar sayyohlarni 4 karra oshirishga tayyorligini bildirgan.

Shu bois, Transport vazirligiga xorijdagi elchilarimiz bilan birga aviaqatnovlarni ko‘paytirish choralarini ko‘rish topshirildi.

Yaqinda, 16-20-oktabr kunlari Samarqand shahrida ilk bor Jahon turizm tashkilotining Bosh assambleyasi yig‘ilishi bo‘lib o‘tadi. Unga 128 ta mamlakatdan mingdan ziyod ishtirokchi, shu jumladan, 79 nafar turizm vaziri, 24 nafar vazir o‘rinbosari kelishi kutilmoqda.

— Bu tadbir mamlakatimiz turizm salohiyatini ko‘rsatish uchun juda katta imkoniyat, — dedi davlatimiz rahbari.

Shu bois, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardan soha vakillarini jalb qilib, har bir hududning tarixi, tabiati, madaniyati, ziyoratgohlari, ovqatlari, sayyohlik maskanlari va marshrutlarini namoyish etish, loyihalar taklif qilib, kelishuvlarga erishish zarurligi ta’kidlandi.

Turistlarni jalb qilish bo‘yicha yana bir katta yo‘nalish bu — madaniy tadbirlar. Prezidentimiz tashabbusi bilan Qoraqalpog‘iston va ayrim viloyatlarda festivallar tashkil etilgan. Shu tajriba asosida qolgan hududlarda ham turistlarni jalb etadigan madaniy tadbirlarni ko‘paytirish topshirig‘i berildi.

Davlatimiz rahbari mamlakat imijida kino san’atining o‘rniga alohida e’tibor qaratdi. Madaniyat vazirligi va Kinematografiya agentligiga bu borada ko‘rsatmalar berildi.

“Ipak yo‘li” turizm xalqaro universiteti mutaxassislari ishtirokida servis sifati hamda soha xodimlarining malaka va madaniyatini oshirish vazifasi qo‘yildi.

Joylardagi sayilgoh va istirohat bog‘larini jonlantirish, tematik turizm ko‘chalarini tashkil qilish, badiiy jamoalarni libos va anjomlar bilan ta’minlash masalalariga ham to‘xtalib o‘tildi.

Yig‘ilishda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar ham ko‘rib chiqildi.

Yurtimizda bu harakat boshlanganiga 2 yil bo‘ldi. Shu davrda 1 ming 200 gektardan ortiq yashil bog‘ va jamoat parklari, 1 million gektardan ziyod yashil hudud va qoplamalar barpo etildi. Umuman, jamiyatda, mas’ullarda daraxtga nisbatan munosabat o‘zgardi.

Endi 25-oktabrdan 1-dekabrgacha “kuzgi daraxt ekish mavsumi” e’lon qilinadi. Bu mavsumda 85 million tup ko‘chat ekilishi mo‘ljallangan.

Buning uchun Respublika shtabi tuzilib, unga Fanlar akademiyasi, Tuproqshunoslik va O‘rmonchilik institutlari, o‘rmon xo‘jaligi rahbarlari kiritiladi. Ular tuproq tahlili va iqlim sharoiti asosida ko‘chat turini belgilab beradi.

O‘rmon xo‘jaligi agentligi tomonidan har bir mahallaga 200 tadan ko‘chat bepul yetkazib beriladi. Shuningdek, 15-oktabrdan barcha tuman va mahallalarda ko‘chat yarmarkasi tashkil qilinadi.

Ko‘chat ekishda manfaatdorlikni oshirish maqsadida avtomobil, temir yo‘l, daryo va kanallar bo‘yi aholi va tadbirkorlarga shartnoma asosida yer toifasi o‘zgartirilmasdan bo‘lib beriladi.

Bandlik vazirligining Jamoat ishlari jamg‘armasi mablag‘lari bundan buyon mahallalarning o‘ziga beriladi va daraxt ekish, parvarishlash hamda tozalik tadbirlariga yo‘naltiriladi.

Ma’lumki, viloyat, tuman va shaharlarda obodonlashtirish bo‘limlari bor. Bu xizmatlarni tajriba tariqasida xususiy sektorga berish taklifi bildirildi. Bunda har bir ko‘cha daraxtlari bilan alohida-alohida lot qilinib, bir yillik mablag‘i bilan ochiq tanlovga qo‘yiladi. Mutasaddilarga shu boradagi shartlar va moliyalashtirish tartibini ishlab chiqish topshirildi.

Yig‘ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan tarmoq va hududlar rahbarlari axborot berdi.

O‘zA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI MDH SAMMITIDA ISHTIROK ETADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning taklifiga binoan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etish uchun 13-oktabr kuni amaliy tashrif bilan Bishkek shahrida bo‘ladi.

Sammit tadbirlari davomida MDH doirasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish, jumladan, savdo, investitsiyalar, sanoat kooperatsiyasi, innovatsiyalar, raqamlashtirish, transport, ta’lim, madaniyat va boshqa sohalarda qo‘shma dastur va loyihalarni amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Davlat rahbarlari xalqaro kun tartibidagi masalalar yuzasidan ham fikr almashadilar.

Yig‘ilish yakunida Hamdo‘stlik doirasidagi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlariga doir qator bitim va qarorlarni qabul qilish ko‘zda tutilgan.

O‘zA

TARADDUD

Davlatimiz rahbarining shu yil 5-7-oktabr kunlari Rossiya Federatsiyasi Prezidenti taklifiga binoan ushbu davlatga rasmiy tashrifi samarali kechdi. Ayniqsa, tashrif doirasida Rossiyadan Qozog‘iston orqali mamlakatimizga gaz yetkazib berilishi bo‘yicha kelishuvlar yurtdoshlarimiz uchun quvonarli bo‘ldi.

USTYURT KENGLIKLARIDA KO‘MILGAN BOYLIK

Ushbu voqelik qaysi jihati bilan ahamiyatli, aksariyat yurtdoshlarimiz nega bundan xursand bo‘lmoqda, degan haqli savol tug‘ilishi tabiiy. Ma’lumki, o‘tgan qishda kuzatilgan anomal sovuq energetika ta’minoti bilan bog‘liq muammolarimizni ko‘rsatdi, shu jumladan, gaz bosimi pastligi tufayli ma’lum muddat uylarimiz isimadi, avvaliga avtomobillarga gaz to‘ldirish shoxobchalarida turnaqator navbatlar paydo bo‘ldi, keyinchalik esa vaqtinchalik ishlamadi ham.

Rossiya gazini “revers” tarzida import qilish masalasiga kelsak, ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston har yili Rossiyadan 2,8 milliard kub metr gaz sotib oladi. Mamlakatimizda minglab sanoat korxonalari, aholi turar joylari barpo etilib, tabiiy gazga talab ortib borayotgan, qolaversa, o‘tgan yilgi energetik taqchillik oqibatlari hali yoddan chiqmagan bir paytda gaz importiga oid bu yangilik e’tirofga loyiq, albatta.

Davomi 4-betda

BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

ERKIN NAFAS OLAYOTGAN XALQ

YOXUD MUNOSIB YASHASH BAXTI

Ona tilimizda “yashamoq” so‘zining ma’nodoshlari ko‘p. Chunonchi, “hayot kechirmoq”, “tirikchilik qilmoq”, “turmush kechirmoq”, “ro‘zg‘or tebratmoq”, “kun ko‘rmoq”, “istiqomat qilmoq” kabi so‘z birikmalari shu yoki shunga yaqin ma’noni ifoda etadi. Lekin inson yashayotgan sharoit, uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit yoki vaziyatga qarab, ushbu so‘z va iboralar o‘zgacha semantik urg‘uga, ya’ni ma’no qatlamlariga ham ega bo‘lishi mumkin.

Masalan, bundan 8-10 yil oldin o‘zimiz yashayotgan mahalla yoki qishlog‘imiz aholisi bilan kundalik hayot tashvishlari haqida suhbatlashsak, “Ha, endi amal-taqal qilib kun ko‘rib yuribmizda, ilojimiz qancha”, deguvchilar ko‘p bo‘lardi. O‘zbekona andisha pardasi bilan haqiqiy holat bir oz yumshatib aytilgan bu so‘zlar zamirida turmushning nochorligi, yetishmovchilik va muammolar har qadamda uchrab turishi bilan bog‘liq dardu hasrat mujassam edi.

Davomi 3-betda

ILM-FAN TARAQQIYOTI

TIBBIYOTDA YADROVIY TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH QANCHALIK MUHIM?

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining 80 yilligi mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi uchun alohida ahamiyatga ega. Joylarda mazkur sanaga bag‘ishlangan katta ilmiy anjumanlar, turli tadbirlar tashkil etilmoqda. Shunday yig‘inlardan biri 3-5-oktabr kunlari Buxoro shahrida bo‘lib o‘tdi. “Yadroviy tibbiyot” mavzusidagi xalqaro konferensiyada o‘ndan ortiq davlatdan 200 ga yaqin olimlar, soha mutaxassislari ishtirok etdi.

Davomi 5-betda

MUNOSABAT

SINALGAN INSTITUTSIONAL SHERIKLIK: QULAY TRANSPORT-LOGISTIKA VA SAVDO-IQTISODIY BOZORLARGA CHIQISH KELISHUVI

Qo‘ng‘irotboy SHARIPOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 5-7-oktabr kunlari Rossiyaga rasmiy tashrifi doirasidagi oliy darajadagi uchrashuvda qo‘shma korxonalar faoliyatini kengaytirish, investitsiya salmog‘ini oshirish, migratsiya va madaniy-gumanitar sohalardagi munosabatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha muzokaralar o‘tkazildi.

Savdo-iqtisodiy, transport-logistika, neft-gaz va energetika tarmog‘idagi shartnomalar tahlil qilinishi barobarida ilm-fan, ta’lim sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha ham muloqot qilindi.

Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar o‘ttiz ikki yillik mustaqil taraqqiyot sinovidan muvaffaqiyatli o‘tib kelmoqda. Bugunga kelib, ikki davlat o‘rtasida, ayniqsa, savdo-iqtisodiy, sanoat hamkorligi jadal kengaymoqda.

> **O‘zbekiston 2020-yilda MDH raisi sifatida transport sohasida 2020–2025-yillarda xalqaro tashishlarda MDHga a’zo davlatlar hududlarida transport xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha xavfsizlik strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha harakatlar rejasini ro‘yobga chiqardi. Shuningdek, MDHni yanada rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlamoqda.**

Bundan tashqari, hukumatlar va parlamentlararo, rektorlar darajasida pragmatik, konstruktiv hamkorlik mustahkamlanmoqda, madaniy-gumanitar aloqalar sezilarli darajada integratsiyalashyapti. Ta’lim sohasida faol hamkorlik va qo‘shma ta’lim dasturlari, konferensiyalar muntazam o‘tkazib kelinadi.

Hamkorlikni yanada keng ko‘lamda rivojlantirishdan ikki tomon birdek manfaatdor va iqtisodiyotda bir-birini to‘ldirib bormoqda. Nazariy jihatdan olib qaraganda ham iqtisodiy sohada resurslarni xalqaro bozorga jalb qilish ustuvorlik kasb etadi. Qimmatli qog‘ozlar chiqarish, mahsulotni chet elda sotishdan daromad olish, inson resurslarini rivojlantirish, iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish kabi islohotlar shular jumlasidandir.

O‘zbekiston uchun Rossiya talabgir bozor sifatida muhim bo‘lib, uzoq yillik transport, logistika, qishloq xo‘jaligi, agrosanoat, chorvachilik, kadrlar tayyorlash va ilm-fan, tibbiyot, farmatsevtika sohalaridagi innovatsiyalarni qo‘llash tajribasiga ega.

Xususan, transport-logistika sohasi O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatimiz ishlab chiqarish eksportida dengizga qarab janubiy yo‘nalishda, janubi-g‘arbiy yo‘nalishda esa Pokiston va Eron orqali Hind okeaniga chiqishga intilmoqda.

Shu bois, O‘zbekiston Janubiy Osiyo davlatlari bo‘lmish Hindiston va Pokiston bilan faol savdo-iqtisodiy hamkorlik bitimlarini imzolab keladi. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimiz savdo-iqtisodiyoti Rossiya ishbilarmonlari uchun ham qulay sheriklik infratuzilmasi sifatida rol o‘ynaydi, deb aytishimiz mumkin.

Ekspertlar fikricha, O‘zbekiston transafg‘on temir yo‘li imkoniyatlari va Afg‘onistondagi qiyin vaziyatni barqarorlashtirish bilan bog‘liq boshqa loyihalarni ishlab chiqish doirasida Pokiston bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Bundan tashqari, Toshkent Janubiy Osiyo davlatlari bilan nafaqat ikki tomonlama, balki SHHT, Markaziy Osiyo+Hindiston formati doirasida ham faol ishlamoqda. Bu sa’y-harakatlar Rossiyaning Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlarida O‘zbekistonni iqtisodiy sherik sifatida maydonga chiqaradi.

Mamlakatimiz Qirg‘iziston orqali Xitoy bilan transport aloqalarini yaxshilash bo‘yicha savdo-iqtisodiy, diplomatik aloqalarini takomillashtirmoqda. O‘zbekiston yuk oqimining asosiy ulushi shimoliy yo‘nalishda, ya’ni Rossiya va Qozog‘iston orqali o‘tadi. Bu esa Rossiya bilan tashqi savdo transport-logistika faoliyatimiz tabiiy ravishda bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Rossiya O‘zbekiston hududida qo‘shma korxonalar va ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etib, iqtisodiyotimizga bevosita investor sifatida ham sezilarli ulush qo‘shib keladi.

O‘zbekiston tashqi savdo faoliyatida bu iqtisodiy hamkorlik savdo oqimlarimizdagi barcha turdagi to‘siqlarni (tarif va tarifsiz cheklovlar, transport to‘siqlari) yengillashtirish, iqtisodiyot infratuzilmasini rivojlantirish uchun Rossiyaning resurs va texnologik salohiyatidan foydalanishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston 2020-yilda MDH raisi sifatida transport sohasida 2020-2025-yillarda xalqaro tashishlarda MDHga a’zo davlatlar hududlarida transport xavfsizligini ta’minlashda xavfsizlik strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha harakatlar rejasini ro‘yobga chiqardi. Shuningdek, MDHni yanada rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlamoqda.

Kelgusida mazkur strategik hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalar bajarilishi transport sohasida hamkorlikning me’yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish, MDHga a’zo davlatlarning tranzit salohiyatini ro‘yobga chiqarish samaradorligini oshirish, xalqaro hamkorlikni birlashtirishni rivojlantirishga katta yordam beradi.

Bugun Rossiyada mehnat resurslariga katta ehtiyoj bor. O‘zbekistonlik mehnat migrantlarining aksari Rossiyada ishlamoqda. 2021-2022-yillarda fuqarolarimizning 50 foizdan ko‘pi aynan Rossiyaga ishlash uchun yo‘l olgan.

Prezidentimiz tashrifi chog‘ida migrantlarga ijtimoiy shart-sharoit yaratish masalalari ko‘rib chiqilishi ham yurtdoshlarimizning Rossiya hududida erkin ishlashi uchun qonuniy kafolatlar yaratadi.

2022-yilda O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida savdo, sanoat kooperatsiyasi va boshqa yo‘nalishlarda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan kompleks dastur imzolangani ikki mamlakatning iqtisodiy hamkorligi samaradorligiga zamin bo‘lmoqda.

> **O‘tgan davrda imzolangan hujjatlarga ko‘ra, Rossiya O‘zbekistonga tog‘-kon sanoati xomashyolari va mahsulotlari, texnologiyalar, transport vositalari, oziq-ovqat mahsulotlari, yog‘och va sellyuloza-qog‘oz, neft mahsulotlari, dori-darmon yetkazib beradi. O‘zbekiston esa Rossiyaga to‘qimachilik va poyabzal, qishloq xo‘jaligi va boshqa sanoat mahsulotlari eksport qiladi.**

Bu galgi rasmiy tashrif doirasida sanoat mahsulotlari va texnologiyalari, sanoat kooperatsiyasi loyihalarini amalga oshirish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

O‘tgan davrda imzolangan hujjatlarga ko‘ra, Rossiya O‘zbekistonga tog‘-kon sanoati xomashyolari va mahsulotlari, texnologiyalar, transport vositalari, oziq-ovqat mahsulotlari, yog‘och va sellyuloza-qog‘oz, neft mahsulotlari, dori-darmon yetkazib beradi. O‘zbekiston esa Rossiyaga to‘qimachilik va poyabzal, qishloq xo‘jaligi va boshqa sanoat mahsulotlari eksport qiladi.

O‘zbekiston MDHda Rossiyaning uchta asosiy savdo sherigidan biri bo‘lib, 2022-yilda o‘zaro savdo hajmi bo‘yicha rekord ko‘rsatkichlar qayd etildi. 2021-yilda Rossiya O‘zbekistonning asosiy savdo sherigi sifatida qariyb 20 foiz tashqi aylanma bilan Xitoyni ortda qoldirdi.

Tinch va xavfsiz mamlakat — O‘zbekistonga rossiyalik sayyohlarning qiziqishi ham oshib bormoqda. Sayyohlar oqimi mamlakatimizda yaratilayotgan turizm obyektlari infratuzilmasi jadal rivojlanishi hisobiga keskin ko‘tarilgan.

Rossiya fuqarolari nazdida O‘zbekistonning turistik jozibadorligi oshayotgani u yerdan sayyohlar oqimi yil boshidan buyon 20 foiz ko‘payganida ko‘rinadi.

Davlatimiz rahbarining tashrifi doirasida qator muhim tadbirlar, jumladan, hukumat rahbarlari darajasidagi qo‘shma komissiyaning to‘rtinchi yig‘ilishi, O‘zbekiston va Rossiya oliy ta’lim muassasalari rektorlarining hududlararo konferensiyasi, uchinchi Hududlararo hamkorlik forumi, Butunrossiya ko‘rgazma markazida O‘zbekiston pavilyoni ochilishi, Iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha ikki tomonlama hukumatlararo komissiya kichik komissiyalari yig‘ilishlari va boshqalar bo‘lib o‘tdi.

Xususan, Qozon shahrida Tatariston Respublikasi raisi Rustam Minnixanov bilan uchrashuv ham samarali kechdi. Muzokaralarda istiqbolli qo‘shma loyihalar muhokama qilindi. Jizzax shahrida Qozon federal universiteti filiali faoliyatiga ham alohida to‘xtalib o‘tildi. O‘zbekistonda Rossiyaning “Olabug‘a” va “Master” texnoparklari bilan yangi sanoat parklarini tashkil etish, mamlakatimizda tadbirkorlikni kengaytirish va qo‘shimcha qiymat yaratish bo‘yicha erishilgan kelishuvlar qayd etildi.

Muzokaralarda raqamlashtirish, sog‘liqni saqlash, ta’lim sohalarida hamda O‘zbekistonda elektron savdoni joriy qilish bo‘yicha loyihalarni birgalikda amalga oshirish masalalari muhokama qilindi va mamlakat hududlari o‘rtasida 3,5 milliard dollarlik hujjatlar imzolandi.

Bunday ulkan sarmoyalar yurtimizda bandlikni ta’minlash imkonini beruvchi tovar ayirboshlash sur’atini saqlab qolish va kooperatsiya aloqalarini kengaytirishga yo‘naltiriladi.

Ikki mamlakat hududlarining amaliy sherikligini yanada rivojlantirish va uni aniq loyihalar bilan boyitish uchun shaharsozlik, uy-joy fondini renovatsiya qilish sohalarida tajriba almashiladi.

Hududlar kesimida sanoat kooperatsiyasi bo‘yicha yil bo‘yi o‘zaro tashriflar reja-jadvalini o‘z ichiga olgan “yo‘l xaritasi”ni tayyorlash yuzasidan kelishuvlar hamkorlik istiqbollarini yanada mustahkamlaydi.

Tashrif doirasida ikki mamlakat hukumatlari va vazirliklari tomonidan 10 ta hujjat imzolandi. Xususan, Samarqand shahrida Rossiya bosh konsulxonasini ochish, vakolatli iqtisodiy operator institutlarini o‘zaro tan olish, “Agroekspress” tezkor temir yo‘l tashuvlarini tashkil etish loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida bitimlar, Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida 2024-2025-yillar uchun hamkorlik dasturi, shuningdek, transport, ilm-fan, ta’lim va madaniyat sohalarida hamkorlik bo‘yicha hujjatlar shular jumlasidan.

O‘zbekiston Prezidenti mamlakatlarimiz o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikda nafaqat miqdoriy ko‘rsatkichlar barqaror o‘sib borayotgani, balki sifat jihatidan o‘zgarishlar ro‘y berganiga e’tibor qaratdi. Xususan, ilgari o‘zaro tovar ayirboshlash tarkibining aksariyatini xomashyo tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunda 70 foizi yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarga to‘g‘ri kelmoqda.

Mahalliy energiya tizimi muammolarini hal qilish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan. Shu bois, tashrif chog‘ida Rossiyadan Qozog‘iston hududi orqali O‘zbekistonga tabiiy gaz yetkazilishiga start berilgani muhim ahamiyatga ega.

Bu loyiha mamlakatimiz energetik xavfsizligini ta’minlash, “moviy yoqilg‘i”ni kafolatli yetkazib berish manbalarini diversifikatsiya qilish yo‘lida oldinga tashlangan katta qadam, iste’moldagi mavsumiy nomutanosiblikni bartaraf etish, aholini gaz va elektr energiyasi bilan ishonchli va uzluksiz ta’minlash uchun energiya resurslarining qo‘shimcha zaxiralarini yaratishga xizmat qiladi.

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASINING 75 YILLIGIGA

YUKSAK HUQUQIY ONG MUHITI

JAMIYATDA QIYNOQ VA ZO‘RAVONLIKKA CHEK QO‘YADI

Salohiddin HAMROYEV,
Ichki ishlar vazirligining Tashkiliy departamenti katta yuriskonsulti

Inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois, rivojlanishning yuqori cho‘qqilarini ko‘zlab ilgarilayotgan har bir davlat bu masalaga ustuvor ahamiyat qaratadi. Jumladan, O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson huquqlarini ta’minlash maqsadida muhim chora-tadbirlar belgilangan. Ayni paytda Bosh qonunimizda o‘z aksini topgan muhim tamoyillarni hayotga tatbiq etish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilayotir.

Inson huquqi haqida gap ketganda, qiynoq va zo‘ravonlik holatlariga qarshi kurashish masalasi doimo kun tartibiga ko‘tariladi. Bu bejiz emas. Bugungi globallashgan dunyoda inson erki va huquqlarini himoyalash borasida zamonaviy tizim yaratilganiga qaramay, hali-hanuz muammolar uchrab turibdi. Inson erki va huquqiga raxna soluvchi bunday noxush holatlar jamiyat rivoji, tinchlik va taraqqiyotga jiddiy to‘siqdir. Shu bois, jahon hamjamiyati bunday holatlarning oldini olish, adolatli, erkin va farovon dunyoni barpo etishga intilib keladi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va BMTning qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiyasi ana shunday global muammolarga qarshi kurashishga yo‘naltirilgan muhim hujjatlardir. Dunyoning ko‘plab mamlakatlari qatorida O‘zbekiston ham bu hujjatlarga qo‘shilgan va majburiyatlarini izchil bajarib kelmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham bu borada ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Xususan, hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emasligi qat’iy belgilab qo‘yilgan. Bundan tashqari, Jinoyat kodeksida ham bunday muomala hamda jazo turlarini qo‘llash uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Bu, o‘z navbatida, BMTning qiynoqlarga qarshi konvensiyasi talablariga to‘liq mos keladi.

Ayni paytda bu yo‘nalishdagi ishlarni xalqaro andozalar darajasida tashkil etishga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Shu maqsadda harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarda qiynoqlarning oldini olish borasida tizimli ish olib borilyapti. Bu borada huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda jazoni ijro etuvchi muassasalar faoliyatini nazorat qilish bo‘yicha Ombudsman institutining vakolatlari mustahkamlab qo‘yildi. Qiynoqlarning oldini olishdagi faoliyatni takomillashtirish bo‘yicha milliy preventiv mexanizmlar joriy etildi.

Unga ko‘ra, ombudsmanga jazoni ijro etish muassasalariga kirish hamda monitoring olib borish vakolati berildi. Birgina 2021-yilning o‘zida ombudsman tomonidan jazoni ijro etish muassasalariga jami 177 ta monitoring tashrifi amalga oshirilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022-yilda 381 tani tashkil etdi.

Prezidentimizning 2021-yil 26-iyundagi “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bu yo‘nalishdagi ishlarda mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ayni paytda bu jabhada milliy va xalqaro hujjatlar tavsiyalarini hisobga olgan holda, qiynoqqa solishning oldini olish bo‘yicha milliy preventiv mexanizmlari izchil takomillashtirilyapti. Shu bilan birga, jamiyatimizda qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini xalqaro huquqning inson huquqlari sohasidagi umume’tirof etilgan prinsip va normalariga muvofiqlashtirish bo‘yicha ish olib borilayotir.

Jumladan, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan sohadagi milliy ta’lim dasturi doirasida qiynoqqa solishga qarshi kurashish bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar va jazoni ijro etish muassasalari xodimlari uchun qisqa muddatli o‘quv kurslari tashkil etilyapti. 2023-yilning birinchi yarim yilligi davomida Toshkent, Buxoro va Farg‘ona viloyatlarida ichki ishlar hamda prokuratura organlarining qariyb 200 nafar xodimi ushbu o‘quv kurslarida malaka oshirdi.

Qonunchilikka kiritilgan so‘nggi o‘zgartirishlar shaxslarning, ayniqsa, mahkumlarning huquq va erkinliklariga rioya etilishini, sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishini ta’minlashga zamin yaratmoqda. Ozodlikdan mahrum etish joylarida mahkumlarni saqlash sharoitlarini insonparvarlik nuqtayi nazaridan yanada yaxshilashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa shuki, qiynoq va boshqa shafqatsiz muomala turlari sodir etilishi aslo mumkin emas. Bunday natijaga erishish va bu borada qonun ustuvorligini ta’minlash uchun esa jamiyatda huquqiy ong-tafakkurni yuksaltirish, bunday illatlarga qarshi toqatsiz munosabatni shakllantirish lozim. Zero, huquqiy demokratik jamiyat barpo etishda o‘z huquqi va burchini teran anglaydigan, mas’uliyatini to‘la his etadigan, shu bilan birga, tevarak-atrofdagi voqealarga daxldorlik hissi bilan yashaydigan insonlarning faolligi va tashabbuskorligi muhimdir. Ana shundagina o‘z oldimizga qo‘ygan ezgu maqsad — adolatli va farovon jamiyat, yuksak taraqqiy etgan demokratik davlat barpo etishga erishamiz.

www.yuz.uz | yuz.uznews | yuz_official | yuz.uz_news

BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

ERKIN NAFAS OLAYOTGAN XALQ

YOXUD MUNOSIB YASHASH BAXTI

Aziz vatandosh, keling, jonajon yurtimiz ravnaqi, buyuk maqsadlar ijrosi yo‘lida qo‘lni qo‘lga berib, birlashaylik! Birlashgan xalq va jamiyat o‘zining bunyodkorlik qudrati bilan qanday ulug‘ ishlarga qodir ekanini amalda yaqqol namoyon etib, har birimiz kelajak avlodlarga ezgu nom, ibratli hayot va maktab qoldiraylik.

Furqat JO‘RAQULOV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbarining birinchi o‘rinbosari

Boshlanishi 1-betda

Bugungi kunda-chi?

Endi ana shu odamlarning aksariyati “E, mana, insondek yashay boshladik, bo‘lar ekan-ku, bechoraning ham yelkasiga oftob tegarkan-ku!” degan fikrni minnatdor bo‘lib aytmoqda.

Chindan ham o‘tgan g‘oyat qisqa davrda oddiy yurtdoshlarimiz hayotida keskin ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Ilgari yo‘limizdagi hech qanday kuch bilan

tebratib, qo‘porib bo‘lmaydigandek tuyulgan qoyadek zil va og‘ir g‘ovlar ulkan jasorat bilan dast ko‘tarilib, uzoq-uzoqlarga uloqtirib tashlandi. Mamlakatimizda bundan yetti yil oldin boshlangan o‘zgarishlar shamoli xalqimiz hayoti va taraqqiyotiga xalaqit berib turgan barcha to‘siqlarni yo‘limizdan supurib tashlamoqda. Islohotlar har bir inson, oila va mahalla hayotiga jadal kirib bormoqda.

Holbuki, ilgari ham Konstitutsiyamiz, qonunlarimiz bor edi. Ularda har bir yurtdoshimizning fuqarolik huquqlari belgilab qo‘yilgan. Ana shu huquqlarni amalda ta’minlashi shart bo‘lgan davlat va hokimiyat organlari ham mavjud edi. Lekin, afsuski, odamlarning oddiy fuqarolik huquqlari ta’minlanmasdi. Chunki xalqning tiynatidagi yangilikka intilish va tashabbus tuyg‘usini ezib, majaqlab, odamlarni og‘zini ochishga ham qo‘rqadigan qilib qo‘ygan edik. Ko‘pchiligimiz “Ha, endi mustaqil davlat qurish shunday bo‘lar ekan-da”, deb bunday adolatsizliklarga ko‘nikib ketgandik.

Nimasini aytasiz, olis shahar yoki qishloqdan poytaxtga kelgan o‘zbek farzandi o‘z yurtida erkin yurolmas, har qadamda “pasport nazorati” degan ta’qibga uchrar edi. Minglab odamlar yurtimizda tug‘ilib va yashab, O‘zbekiston fuqarosi bo‘lolmay armonda dunyodan o‘tib ketgani ham ayni haqiqat. Toshkent shahrida “propiska”dan o‘tish, uy-joy yoki mol-mulk sotib olishdan ko‘ra biror-bir xorijiy mamlakatga borib, odamdek yashash osonroq edi. Shuning uchun o‘z qadrini bilgan qancha mardum lash-lushini yig‘ishtirib, muhojirlikni afzal bilgani ham hech kimga sir emas.

Davlat o‘z fuqarolariga ishonmas, tadbirkorlik va boshqa qonuniy faoliyatlar uchun imkoniyat yaratib berish u yoqda tursin, hatto qonuniy ishlab topgan pulini bankda chet el valyutasiga almashtirib olishiga yo‘l bermas edi.

Toshkent shahriga kirib kelishdagi nazorat postlarini ayting!

Bolalar bog‘chasi va uy-joy sohasidagi muammolarni ayting!

Bechora ota-onalarning o‘g‘il-qizlarini to‘qqizinchi sinfdan so‘ng qaysi litsey va kollejga bersam ekan deb, dardini kimga aytishni bilmasdan, bosh changallab, izillab yurganlarini ayting!

Ishsizlik, xorijga mehnat migranti sifatida borish yo‘lidagi to‘siqlar, davlat xizmati ko‘rsatishdagi sansolarliklar, oliy o‘quv yurtiga kirishdagi har yili to yanvar oyiga qadar cho‘ziladigan boshi-keti yo‘q mashmashalar!..

E, qaysi birini aytasiz! Sanayversangiz, adog‘i ko‘rinmaydi bu yaqin tarixning...

Qisqasi, har qadamda adolatsizlik, har eshikda inson sha’nini kamsitib, yerga uradigan muhit hukmron edi.

Nahotki, shuncha muammolar bir necha yilga qolmasdan hal bo‘lib ketgan bo‘lsa!

Nahotki, yillar davomida haqiqat izlab ovora bo‘lgan odamlarning ko‘ksiga shamol tegib, orzu-armonlari ushalayotgan bo‘lsa!

To‘g‘risi, odam daf’atan ishongisi kelmaydi. Bo‘layotgan islohot va yangiliklar bamisoli tushda kechayotgandek. Lekin bularning barchasi haqiqat, bugungi kunimizning real voqeligi, tush emas, aziz vatandosh, xotirjam bo‘ling!

Yaratganning o‘zi xalqimiz boshiga baxt qushini qo‘ndirdi. Yillar davomida chigallashib ketgan qancha-qancha og‘ir muammolar hech qanday ijtimoiy larzalarsiz, janjal-to‘polonlarsiz qisqa muddatda shu qadar muvaffaqiyatli hal etilgani chindan ham Allohning bizga ko‘rsatgan cheksiz marhamati emasmi?

Esingizdadir, yaqin-yaqingacha yuragimizda agar chuqur islohotlarni boshlasak, odamlarga demokratiya va erkinlik bersak, jamiyatda talato‘p boshlanib ketmasmikan, degan qo‘rquv va hadik bor edi. Qo‘rquv esa yangilik va islohotlar yo‘lidagi eng katta to‘siq. Xato qilishdan qo‘rqqan odam hech qachon oldinga qarab borolmaydi, biron-bir natijaga ham erisholmaydi. Xalqimiz juda topib aytganidek, “Toqqa chiqmasang, do‘lona qayda, jon chekmasang, jonona qayda?”

Keyingi yillardagi ulkan islohotlarimiz tajribasi bir haqiqatni yaqqol isbotlab bermoqda: el-yurt bilan muloqot va maslahat qilib, har bir ish chuqur o‘ylab, odamlar manfaatini ko‘zlab amalga oshirilsa, demokratik islohotlar janjal va talato‘plarga emas, aksincha, tinch hayotimizni, jamiyatdagi o‘zaro hurmat va hamjihatlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilar ekan. Ezgu maqsadlar bilan dadil oldinga borganni xalq ham, Yaratgan ham qo‘llab-quvvatlab, mardligi va jasoratiga yarasha yutuq va natijalar ato etar ekan.

Biz bugun yangi O‘zbekiston va Prezidentimiz misolida yurtimizda amalga oshirilayotgan olamshumul o‘zgarishlar hamda ularning hayotbaxsh samarasi asosida bu fikrga to‘la ishonch hosil qilib turibmiz.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar g‘oyat serqirra va keng ko‘lamli bo‘lib, ular haqida batafsil fikr yuritish, tub mohiyatini ochib berish uchun albatta o‘ta zalvarli ilmiy kuzatish va tadqiqotlar olib borish lozim bo‘ladi. Lekin ularning asosiy maqsad va yo‘nalishlari bugungi kunda oddiy odamlarga ham ma’lum. Bular — inson va uning qadrini yuksak darajaga ko‘tarish, barcha sohalarda milliy manfaatlarimizni ta’minlash, shu asosda millati, tili va dinidan qat’i nazar, har bir inson erkin va farovon yashaydigan yangi O‘zbekistonni barpo etishdan iborat.

Bunday olijanob maqsadlarga erishish mexanizmlari ham ko‘pchilikka ayon: demokratiya va erkinlik siyosatini, dunyoga ochiqlik yo‘lini izchil davom ettirish, barcha sohalar rivojida ilm, ilm va yana bir bor ilm, yangilik va innovatsiyalarga tayanish, ta’lim sifatini oshirish, islohotlarni mahalla darajasiga tushirib, xalqqa yanada yaqinlashtirish va hokazo.

Biz keyingi yillarda turli sohalarda erishgan yutuq va natijalarimizni faqat statistik tahlil asosida qayd etishga o‘rganib qolganmiz.

Aslida, har bir raqam ortida inson va uning hayoti, xalqning turmush darajasi mujassam ekaniga ko‘p ham e’tibor bermaymiz. Keling, ba’zi ko‘rsatkichlarni aynan shu nuqtayi nazardan yana bir bor tahlil chig‘irig‘idan o‘tkazib ko‘raylik.

Agar 2016-yilda bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’lim tizimiga qamrab olish darajasi 27 foiz bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda bu raqam 72 foizga yetdi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, bog‘chaga qatnagan bola bilan bog‘chaga qatnamagan bola o‘rtasida, ularning jismoniy va aqliy rivojlanishi o‘rtasida katta farq bor. Xuddi shunday, ularning ota-onalari o‘rtasida ham hayotga, farzandlar tarbiyasiga qarashda, istiqbolini belgilashda sezilarli farq bo‘ladi. Chunki bog‘cha ilmiy asosda, aniq metodika bo‘yicha tarbiya beradigan, bolaning jamiyatga, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga tayyor holda — ongli fuqaro va kerakli mutaxassis sifatida integratsiya bo‘lishini ta’minlaydigan ta’lim-tarbiya tizimining boshlang‘ich va eng muhim bo‘g‘ini. Bu tarbiya maktab tizimida yanada rivojlantiriladi va oliy ta’lim tizimida takomillashtirilib, mantiqiy yakuniga yetkaziladi.

“Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi”, degan shior asosida yurtimizda maktab ta’limi ham tubdan yangilanmoqda. Ushbu tizimda qisqa muddatda qo‘shimcha ravishda 700 ming o‘quvchi o‘rni yaratilgani, butunlay yangi namunadagi 200 ga yaqin Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar hamda 400 ta xususiy maktab faoliyati yo‘lga qo‘yilgani farzandlarimiz uchun o‘quvchilik yillaridan boshlab ta’lim-tarbiya olishda o‘ziga xos tanlash imkoniyatlari yaratib berilayotganidan dalolatdir.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimi tarmoqlari keskin kengaygani va ulardagi qamrov bir necha barobar ortgani tufayli yuqorida zikr etilgan farq bolalar o‘rtasida ham, ota-onalar o‘rtasida ham tobora kamayib boradi. Binobarin, jamiyatga, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jarayoniga integratsiya bo‘ladiganlar soni ko‘payadi, xalqning umumiy maqsadlar atrofidagi birligi, jipsligi kuchayadi.

Mana ko‘ryapsizmi, birgina maktabgacha ta’lim tizimidagi islohotlarning ijtimoiy ahamiyati qanchalik beqiyos.

“Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi”, degan shior asosida yurtimizda maktab ta’limi ham tubdan yangilanmoqda. Ushbu tizimda qisqa muddatda qo‘shimcha ravishda 700 ming o‘quvchi o‘rni yaratilgani, butunlay yangi namunadagi 200 ga yaqin Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar hamda 400 ta xususiy maktab faoliyati yo‘lga qo‘yilgani farzandlarimiz uchun o‘quvchilik yillaridan boshlab ta’lim-tarbiya olishda o‘ziga xos tanlash imkoniyatlari yaratib berilayotganidan dalolatdir. Bunday rang-baranglik, bir nechta variantlar mavjudligi sohada sog‘lom raqobat bo‘lishi, ta’lim sifatining oshishida muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarimiz kamolotida alohida o‘rin tutadigan oliy ta’lim tizimidagi holatni ham kechagi kun bilan mutlaqo solishtirib bo‘lmaydi. O‘rtadagi farq osmon bilan yercha desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

So‘nggi yillarda sohada amalga oshirilayotgan izchil islohotlar tufayli maktab bitiruvchilarini oliy ta’limga qamrab olish darajasi 2016-yilgi 9 foizdan bugun 38 foizga yetdi. Oliygohlar soni esa 77 tadan 210 taga, nodavlat institut va universitetlar esa 65 taga yetdi.

Ayniqsa, oliy ta’lim olish bo‘yicha qizlarga alohida sharoitlar yaratib berilayotgani xalqimiz orzularining yana bir ro‘yobidir. Chunki qizning bilimli va ma’rifatli bo‘lishi u unib-o‘sgan, ertaga kelin bo‘lib boradigan oilaning baxti. Bu — butun jamiyatning baxti. Nega deganda, ilm-ma’rifatli ona o‘z farzandlarini, albatta, jismoniy va ma’naviy barkamol qilib, zamon talablari asosida tarbiyalaydi, ro‘zg‘orini pok, fayzli va barakali saqlaydi, hayotda bo‘lib turadigan qiyinchiliklar paytida ham umidsizlikka tushmasdan, har qanday masalaning huquqiy, moddiy va ma’naviy yechimini topa oladi. Moliyaviy tomondan ham, ma’naviy-ruhiy jihatdan ham mustaqil bo‘lib, ayollik sha’ni va g‘ururini asrab yashaydi.

Yana bir tomoni shundaki, qizlarning bilim va kasb-hunarlarni, chet tillarni o‘rganishiga bunday keng yo‘l ochayotganimiz biz barpo etayotgan jamiyatning ma’rifiy darajasi ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shuning o‘zi Uchinchi Renessans poydevoriga qo‘yilgan eng muhim va mustahkam g‘isht desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugungi kunda “obod mahalla”, “obod qishloq”, “mahallabay”, “xonadonbay”, “kambag‘allikni qisqartirish”, “mahalladagi yettilik” kabi tushunchalar xalqimizning qalbi va ongiga chuqur singib, yangi davr qadriyatlariga aylanib bormoqda. Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasi, uning g‘oyaviy asoslari ana shunday qadriyatlarga tayanadi.

Hech shubhasiz, hayotimizning turli soha va tarmoqlarida keyingi yillarda erishgan yutuqlarni mustahkamlab, keng ko‘lamli islohotlarimizni yangi bosqichga ko‘tarish — zamon talabi. Shu bois, mamlakatimizda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi qabul qilinib, uning doirasida ulkan amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Strategiyada 2030-yilga borib, yalpi ichki mahsulotimiz hajmini 160 milliard dollarga, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 4 ming dollarga yetkazishdek yuksak marralar belgilandi. Albatta, turli tahdid va xatarlar, global muammolar ortib borayotgan hozirgi g‘oyat murakkab davrda o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erishish oson bo‘lmaydi. Buning uchun har bir yurtdoshimiz Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz kelajagi yo‘lida o‘z burchi va mas’uliyatini yanada chuqur anglab, zamon talablarini tushunib, avvalgidan bir necha hissa ko‘p va samarali mehnat qilishi lozim.

Eng muhimi, bugungi tarixiy burilish pallasida milliy birlikni, yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalik, millatlararo do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Shu ma’noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Bir bo‘lsak — yagona xalqmiz, birlashsak — Vatanmiz”, degan so‘zlarida ham chuqur hikmat, ham barchamizga qaratilgan o‘tli da’vat, murojaat mujassamdir. Demak, xalqimizning baxti, kelajagi va farovonligi, Vatanimiz mustaqilligi, uning dunyo maydonida mustahkam qo‘rg‘ondek turishi va shon-shuhrati, avvalo, bizning birligimiz, hamjihatligimizga bog‘liq.

Birlik — bu eng katta imkoniyat, boylik va yutuq. Chunki aynan birlik tufayli tarqoq kuchlar, fikrlar, resurslar yagona maqsad sari safarbar etiladi. Aynan birlik tufayli kichik imkoniyatlar katta imkoniyatga, kichik natijalar katta natijalarga aylanadi. Aynan birlik tufayli har birimizning ishimiz va faoliyatimizdagi ayrim xato va kamchiliklar barham topadi. Xatoni tuzatish bu — behuda sarflanayotgan kuch va imkoniyatni foydali ishga yo‘naltirib, hayotbaxsh resursga aylantirish, degani.

Albatta, hayotimizda hali kamchilik va muammolar ko‘p. Eng tashvishli jihati — bugungi erkin va obod hayotni, uning bag‘ridagi ulkan imkoniyatni hamma ham birdek qadrlayotgani yo‘q. Oramizda noshukurchilik qilib, boqimandalik kayfiyatiga berilgan, faqat davlatning qo‘liga qarab “Oy chiqsa ham, kun chiqsa ham menga bo‘lsin”, deb o‘zining tor shaxsiy manfaati bilan yashaydiganlar ham, afsuski, kam emas. Milliy birlik va jipslikning buyuk qudrati shundaki, u ana shunday insofu diyonat manzilidan uzoqlashgan odamlarni ham tarbiyalab, sog‘lom safga qaytaradi.

So‘zimiz boshida alohida ta’kidlangan insondek munosib yashash masalasiga qaytaylik. Biz keyingi yillar davomida ana shunday hayotga o‘rgandik.

Endi tashvish va muammolarimizni davlat idoralarida kunlab, oylab navbatda turib, ming azobda bitirishdek achinarli holatlar yo‘q.

Endi maktab o‘quvchilari va talabalarni o‘qishdan qoldirib, paxta dalalariga majburan haydash yo‘q.

Endi tadbirkorlik yo‘lida, pok orzuniyatlar yo‘lida ming xil hiyla-nayranglar yo‘q.

Bu yilning o‘zida mamlakatimizda yuzlab yangi uylar qurilmoqda. Demak, yurtdoshlarimiz uchun Vatanda “vatansizlik” muammosi yo‘q va endi hech qachon bo‘lmaydi ham.

Umuman, qaysi jabhani olmang, dunyoda ozod va erkin yashayotgan mutaraqqiy xalqlarga xos hayot tarzi, talab va mezonlari bizning turmushimizga ham kirib kelayotganini ko‘ramiz. Barchamizning ko‘ksimizni tog‘dek ko‘taradigan, g‘ururimizga g‘urur qo‘shadigan ana shunday umidbaxsh jarayonlar bardavom bo‘lishi, yanada kuchayib borishini, albatta, har birimiz istaymiz. Demak, hech qachon ortga qaytmasdan, shu yo‘ldan qat’iy olg‘a borishga barchamiz tayyormiz.

Shunday ekan, aziz vatandosh, keling, jonajon yurtimiz ravnaqi, buyuk maqsadlar ijrosi yo‘lida qo‘lni qo‘lga berib, birlashaylik! Birlashgan xalq va jamiyat o‘zining bunyodkorlik qudrati bilan qanday ulug‘ ishlarga qodir ekanini amalda yaqqol namoyon etib, har birimiz kelajak avlodlarga ezgu nom, ibratli hayot va maktab qoldiraylik.

Hech qachon unutmaylik: tog‘ jilg‘alaridek birlashsak, ulug‘ daryo, ulug‘ dengiz bo‘lamiz!

Birlashsak, yutug‘imizga yutuq, imkoniyatimizga imkoniyat, qudratimizga qudrat qo‘shiladi!

Birlashsak, milliy irodamiz, kuch va salohiyatimizni to‘la namoyon etamiz!

Birlashsak, ezgu maqsadlarimizga albatta yetamiz!

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

TARADDUD

Ustyurt KENGLIKLARIDA KO‘MILGAN BOYLIK

Boshlanishi 1-betda

Hozircha bu yil qish fasli qay darajada sovuq yoki iliq kelishiga doir aniq ma’lumotlar yo‘q. Lekin qish haroratining qanday bo‘lishidan qat’i nazar, bu mavsumda tabiiy gazga talab ortishi aniq. Negaki, yurtimizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining asosiy qismi — qariyb 90 foizi issiqlik elektr stansiyalarida gaz yoki ko‘mir yoqish hisobiga hosil qilinadi. Demak, bundan anglash mumkinki, iqtisodiyotimiz rivoji va aholi farovonligini oshirishda tabiiy gaz barqarorligi muhim omil sanaladi.

Prezidentimiz ayni shu bois, bu masalaga doim alohida e’tibor qaratadi. Rossiya bilan gaz importi borasidagi kelishuv ushbu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlarning amaliy samarasi bo‘lsa, asosiy tomonlari yurtimizda yangi gaz konlarini izlab topish, o‘zlashtirish, korxonalarni modernizatsiya qilish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirish bo‘yicha qo‘lga kiritilayotgan natijalarda ko‘zga tashlanadi. Buni birgina Ustyurt gaz ishlab chiqarish boshqarmasi faoliyati misolida ham ko‘rish mumkin.

Ma’lumotlarga ko‘ra, “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2023-yilda 700 dan ortiq geologik-texnik chora-tadbir amalga oshirish hamda buning evaziga 32,8 milliard kub metr tabiiy gaz qazib chiqarish rejalashtirilgan. Shundan 1,8 milliard kub metr qismi Ustyurt gaz ishlab chiqarish boshqarmasi hissasiga to‘g‘ri keladi.

Joriy yil bu yerda yuzdan ortiq geologik-texnik tadbirlar o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Shu jumladan, 7 ta izlov-qidiruv qudug‘ini burg‘ilash, 67 ta quduqda murakkab turdagi kapital ta’mirlash ishlari olib boriladi. Shu bilan birga, 5 ta texnologik obyekt ishga tushiriladi. Natijada 1,8 milliard kub metr tabiiy gaz hamda 15,8 ming tonna suyuq uglevodorod qazib chiqariladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, so‘nggi yillarda Ustyurt mintaqasining yuqori istiqbolga ega 4000-7000 metr chuqurlikda joylashgan quyi yura davri yotqiziqlari zamonaviy seysmik-qidiruv materiallari hamda yangi texnologiyalarni tatbiq etgan holda qayta atribut tahlil qilinmoqda. Shu orqali “Sudochiy” botiqligining chuqur geologik tuzilishi, burg‘ilashdan olingan barcha geologik-geofizik va boshqa ma’lumotlarni o‘rganish hamda hududning regional modeli asosida aniqlangan yangi mahsuldor qatlamlarning neft-gazga istiqbolliligi hamda uglevodorod resurslarini baholash ishlari “Schlumberger” xalqaro servis kompaniyasi bilan hamkorlikda olib borilyapti.

Ustyurt hududida tabiiy gaz qazib olish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan keng ommani yaqindan tanishtirish maqsadida tashkil etilgan press-turda shular haqida atroflicha ma’lumot berildi.

Qoraqalpog‘istonning yer osti boyliklari ko‘p bo‘lgan ushbu hududida uglevodorod qazib chiqarish 1995-yildan boshlangan. Ustyurt gaz qazib chiqarish boshqarmasi tomonidan qazib olingan xomashyo gazi iste’molchilar hamda “Ustyurt gaz-kimyo majmuasi”ga yetkazib berilgan.

2023-yilda Ustyurt boshqarmasida neft va gaz geologiya-qidiruv ishlari natijasida 1 ta yangi maydon burg‘ilashga kiritildi. 20 ming metrdan ortiq burg‘ilash ishlari bajarildi va 4 ta yangi qidiruv-izlov qudug‘ida qurilish ishlari tugatildi. Natijada Sharqiy Arslon yangi gazkondensat koni ochilib, tabiiy gazning 1 milliard metr kub yangi zaxiralari topildi. Shu bilan Ustyurt mintaqasida foydalanilayotgan konlar soni 10 taga yetdi.

— Quyi Sharqiy Berdaq ikkinchi qidiruv-izlov qudug‘ining ham burg‘ilash ishlari yakuniga yetdi, — deydi “O‘zneftgaz Burg‘ilash ishlari” korxonasi bosh muhandisi Maqsud Jumayev. — Bugungi kungacha 4 ming 500 metrgacha burg‘ilash ishlari olib borildi. Ushbu kondagi 5-sonli izlov-qidiruv qudug‘ida joriy yil 8-yanvarda quyi yura qatlamlarini o‘rganish, yuqori natijada geologik ma’lumotlarni olish, yangi istiqbolli mahsuldor qatlamlarni aniqlash va mavjud uglevodorod zaxiralarini o‘stirish maqsadida burg‘ilash ishlarini boshlagan edik. Shu paytgacha yuqori va o‘rta yura davrlaridagi qatlamdan gaz olib turilgan bo‘lsa, bugungi kunda quyi yura — chuqurlashtirilgan quduqdan yangi texnologiyalarni qo‘llash asnosida yuqori bosimli, ya’ni kuniga 1 million kub metr atrofida gaz oqimi olinmoqda.

Mutaxassisning qo‘shimcha qilishicha, ish jarayonidagi burg‘ilash uskunalari juda zamonaviy. Xitoydan keltirilgan ushbu texnologiyalar 350 tonna yukni ko‘tarish quvvatiga ega. Uskuna bilan 5 ming metr chuqurlikkacha qazish imkoniyati mavjud.

Hozir gaz chiqarishning oxirgi bosqichlari olib borilmoqda. Bunda qatlam bosimi 600 atmosferadan yuqori. Qatlamdagi harorat esa 150 darajani tashkil etadi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, ochilayotgan quduqlardan kamida 20-30 yil foydalanish mumkin. Mutaxassislarimiz bu bilan cheklanib qolmasdan, qo‘shimcha quduqlarni burg‘ilash, shu orqali yangi kon zaxiralarini aniqlash ishlarini ham davom ettirmoqda.

Umuman olganda, Ustyurt hududida 7 ming 535 pogono kilometr hajmda 2D va 1472 kvadrat kilometr hajmda 3D seysmik qidiruv ishlari bajarilib, 14 ta struktura izlov burg‘ilashga tayyorlangan. Shuningdek, 23 ta yangi maydon izlov burg‘ilashga kiritilgan bo‘lsa, 239 ming 262 metr hajmda izlov-qidiruv burg‘ilash ishlari amalga oshirilgan, 60 ta izlov-qidiruv qudug‘ida qurilish tugatilgan.

Olib borilgan geologik-qidiruv ishlari samarasi o‘laroq, avval neft-gazlilik istiqboli to‘liq isbotlanmagan 3 ming 200 dan 4 ming 500 metrgacha chuqurlikdagi quyi yura yotqiziqlaridan sanoat ahamiyatiga molik gaz va kondensat oqimlarini olishga erishilgan. Pirovardida esa Beshqala, Quyi Surgil, Oraliq, Qushqair, G‘arbiy Quyi Surgil, Quyi Sharqiy Berdaq, Sharqiy Arslon kabi 7 ta gazkondensatli kon ochishga muvaffaq bo‘lindi. Shuningdek, 83,7 milliard kub metr tabiiy gaz va 4,158 million tonna hajmda kondensat zaxirasi yaratildi.

So‘nggi ikki yilda ushbu boshqarmada uglevodorodlarni qazib chiqarishni ko‘paytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar o‘z vaqtida bajarilishi hisobiga 57 ta yangi quduq burg‘ilandi. 95 ta quduq mukammal ta’mirlanib, 100 kilometrdan ortiq har xil turdagi gazni tashuvchi quvurlar tortilib, ishga tushirilgan.

Quyi Surgil, Quyi Sharqiy Berdaq konlarining ostki chuqur qismida tabiiy gaz zaxiralariga ega bo‘lgan yangi qatlamlarning aniqlanishi geologiya-qidiruv, konlarni o‘zlashtirish borasidagi yangi yo‘nalishlarni ochib berishi bilan bir qatorda, Ustyurt regioni bo‘yicha tabiiy gaz, gaz kondensati zaxiralarini o‘stirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatdi.

Press-tur ishtirokchilarining navbatdagi manzili Quyi Sharqiy Berdaq koni bo‘ldi. Konga qarashli 17-quduq ishlatish qudug‘i hisoblanar ekan. Loyihaviy chuqurligi 4 ming 500 metr.

— Ushbu quduqni joriy yil 6-sentyabr kuni burg‘ilashni boshlaganmiz, — deydi Maqsud Jumayev. — Bugungi kunda quduqning chuqurligi 2 ming 300 metrni tashkil qiladi. Qudug‘imiz loyiha bo‘yicha 180 kunga mo‘ljallangan. Lekin biz chet el kompaniyalarining burg‘ilash eritmalaridan foydalangan holda, buni 120 kunga mo‘ljallayapmiz. Chunki qish yaqinlashib kelyapti, tabiiyki, gazga bo‘lgan ehtiyoj ham oshadi. Shuning uchun bu yerdagi ishlarni yakunlashni 60 kunga qisqartirib rejalashtirdik. Ushbu qudug‘imizdan kuniga 500 ming kub metr gaz olish maqsad qilingan.

2023-yilda boshqarma tabiiy gaz qazib chiqarish bo‘yicha yuqori marralar, ya’ni 4-5 milliard kub metr tabiiy gaz qazib olishni rejalashtirgan. Bu ko‘rsatkichlarga erishish uchun 36 ta yangi gaz qudug‘i burg‘ilashdan ishga tushiriladi. 21 ta mavjud gaz qudug‘i murakkab ta’mirlanib, 7 ta texnologik obyekt ish boshlaydi. Bugungi kunda esa Boyliq-1, Quyi Sharqiy Berdaq-5, Quyi Qustao‘-1, Oraliq-3, G‘arbiy Quyi Surgil-3, Shimoliy Urga-3-maydonlarida izlov-qidiruv burg‘ilash ishlari olib borilmoqda.

Yil yakunigacha 4 ta yangi maydon izlov burg‘ilashga joriy qilinishi, 54 ming 500 pogono metr hajmda izlov-qidiruv burg‘ilash ishlari bajarilishi, 8 ta quduqni qurilish bilan tugatish reja qilingan.

Mazkur geologik tadbirlar natijasida Boyliq, Sharqiy Arslon va Quyi Qustao‘ maydonlarining neft-gazlilik istiqboli baholanishi hamda 12 milliard kub metr tabiiy gaz va 450 ming tonna hajmda suyuq uglevodorodlar zaxirasi o‘stirilishi kutilmoqda.

Shuningdek, 4,5-6,5 ming metr chuqurlikdagi qatlamlarda uglevodorod zaxiralarini izlash maqsadida G‘arbiy Quyi Surgil maydonida 6 ming 500 metr loyihaviy chuqurlik bilan parametrik quduq burg‘ilanmoqda. Bu tarixiy voqea. Chunki shu kungacha bunday chuqurlikda quduq burg‘ilanmagan.

Orol dengizi qo‘ynida gazni qazib olish va qayta ishlash jarayoni bilan tanishar ekanmiz, navbatdagi manzilimiz “Arslon” gazni kompleks tayyorlash qurilmasi bo‘ldi. Cho‘l bag‘ridagi bahaybat qurilma bizni hayratlantirdi. Ushbu kompleks qazib olinayotgan gaz xomashyosini suv va kodensatdan ajratib olib, toza gazni “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati tarmoqlariga uzatib beradi.

— “Arslon” gazni kompleks tayyorlash qurilmasi Prezidentimizning 2017-yil 9-martdagi “2017-2021-yillarda uglevodorod xomashyosi qazib olishni ko‘paytirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori asosida 2019-yil dekabrda ishga tushirilgan, — deydi Ustyurt gaz qazib chiqarish boshqarmasi bo‘limi boshlig‘i Latifjon Jumamuratov. — Kompleks 2 ta past haroratli separatsiyalash tarmoqlaridan iborat. Ushbu tarmoqlarning har biri kuniga 3 million kub metr, yiliga esa 2 milliard kub metr tabiiy gazni kompleks tayyorlash quvvatiga ega. Bu yerda Arslon, Quyi Surgil, G‘arbiy Quyi Surgil konlaridan qazib olinayotgan gaz qayta ishlanadi. Ya’ni past haroratda separatsiyalash bilan gaz tarkibidan qatlam suvi, mexanik birikmalar hamda suyuq uglevodorodlar ajratib olinadi. Natijada tozalangan tabiiy gaz davlat standarti talablarigacha yetkaziladi va magistral gaz quvurlari orqali iste’molchilarga uzatiladi.

Ustyurt hududida istiqbolda gaz qazib chiqarishga qaratilgan geologik-texnik tadbirlar va loyihalarni hisobga olgan holda, “Arslon” gazni kompleks tayyorlash qurilmasida yana 1 dona separatsiyalash tarmog‘i qurilmoqda. Hozirda kunlik 3 million kub metr gazni kompleks tayyorlash quvvatiga ega loyiha bo‘yicha bunyodkorlik ishlari jadal olib borilmoqda. Loyiha yakuniga yetsa, ushbu qurilma umumiy hisobda 9 million kub metr gazni kompleks tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. U ayni qish mavsumida gaz qazib chiqarish hajmini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli. Bosh loyihachi “O‘zLITIneftgaz” AJ, “Neftgazmontaj” MCHJ pudratchi tashkiloti qurilish-montaj ishlarini olib bormoqda. Hozirda loyiha bo‘yicha 70 foiz qurilish-montaj ishlari yakunlangan.

Sharqiy Berdaq siquv kompressor stansiyasi 2017-yilda ishga tushirilgan. Stansiyada 3 ta gaz haydash agregati bor. Loyiha bo‘yicha kunlik 6 million kub metr, yiliga 2 milliard kub metr past bosimli tabiiy gaz bosimini oshirib berishga mo‘ljallangan.

Mazkur siquv kompressor stansiyasi Sharqiy va Shimoliy Berdaq, Arslon, Inom va Quyi Surgil kabi konlarda mavjud 200 dan ortiq quduqdan kunlik qazib olinayotgan 5,9 million kub metr past bosimli tabiiy gaz bosimini oshirib, past haroratda gazni kompleks tozalash qurilmasiga yetkazib beradi.

Ustyurt hududidagi konlarda bosim tushib borayotganini inobatga olib, mavjud zaxiralarni chuqur o‘zlashtirish va qazib olinayotgan gazni tayyorlash qurilmalariga yetkazib berishni ta’minlash maqsadida 2024-yilda Sharqiy va Shimoliy Berdaq konlaridagi gaz yig‘ish joylarida yana 4 ta kichik siquv kompressor stansiyasini qurish rejalashtirilgan.

Qum barxanlari bilan o‘ralgan bu kengliklarda yer osti boyliklarini o‘zlashtirish borasida olib borilayotgan ishlar bilan tanishar ekanmiz, zaxiralarimiz ko‘pligidan xursand bo‘ldik. Ularni qazib olish bo‘yicha yirik loyihalar amalga oshirilayotganidan amin bo‘ldikki, kuz-qish mavsumida tabiiy gaz ta’minoti barqaror bo‘lishi, talafotsiz o‘tishi uchun zarur choralar ko‘rilmoqda. Demak, qahraton qishda bu safar uylarimiz issiq bo‘ladi, hech qanday xavotirga o‘rin qolmaydi.

Ustyurt hududidan qaytar ekanmiz, kichik-kichik qum barxanlari oralab katta yo‘l tomon belanchakday tebranib ketayotgan ulovimiz bizlarni allalaganday bo‘ladi, kechki cho‘l shamoli esa tevarak-atrofimizda xuddi mohir musavvir singari ajib surat chizadi. Yantoq yaproqlari biz bilan qo‘l silkib xayrlashayotganday, tobora olisda qolayotgan gaz inshootlari tomonidan esayotgan shamol esa “Bu zamin bag‘ri boyliklarga to‘la, yana kelsangiz, ko‘rasiz, ungacha bu joylarda katta-katta korxonalar barpo etiladi”, deganday bo‘ladi...

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

TOMORQACHILIK

TAQDIR DAVOMINI SHIRIN QILGAN ACHCHIQ QALAMPIR

Hayotda ba’zan asal achchiq, qalampir esa shirin bo‘lishi mumkin ekan. Bu fikrimizni Farg‘ona viloyatining Qo‘shtepa tumanida yashayotgan Hikmatxon opa Ro‘zmatova misolida ko‘rish mumkin. Hayot turfa yo‘llardan, turfa tasodif va voqealardan iborat. Goh qaysi yo‘ldan yurish, qay manzilga borishni, taqdirimizga nimalar bitilganini bilmaymiz. Lekin peshonamizga yozilganini ham ko‘rmay ilojimiz yo‘q.

“O‘qchi” mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi Hikmatxon opa va Yusufbek aka Ro‘zmatov bundan bir necha yil oldin taqdirning qattiq zarbasiga uchradi. Ularning yolg‘izgina o‘g‘li G‘ulomnazir 11 yoshida baxtsiz hodisa tufayli vafot etdi.

G‘am-anduhni ko‘tara olmagan Hikmatxon opa qattiq betob bo‘lib qoldi. Onaizor uchun hayot to‘xtab qolgan edi go‘yo... Lekin turmush o‘rtog‘i va qizi uchun oyoqqa turishi kerak edi.

Vaqt hamma narsaga davo ekan. Oradan yillar o‘tdi. Qizi Muslimaxon ulg‘aydi, uni turmushga uzatishdi. U oilasi bilan Marg‘ilon shahrida yashaydi. Mana, hozir Hikmatxon opa va Yusufbek akaning uch nabirasi bor. Ular buva va buvilarini ko‘rgani kelganda uylari quvonchu shodlikka to‘lib ketadi.

Hikmatxon opa va Yusufbek aka o‘zlari yolg‘iz yashayotganlari tufayli mahalladagi o‘zgalar parvarishiga muhtoj oilalardan hisoblanadi. Shuning uchun Qo‘shtepa tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi xodimlari va mahalla fuqarolar yig‘ini faollari ulardan tez-tez xabar olib turadi.

Yusufbek aka 62 yoshda, Hikmatxon opa esa 61 yoshda. Ular qarilik nafaqasida bo‘lsa-da, 4 sotix tomorqaga o‘zlari qaraydi. Chol-kampir bir-biriga suyanib tomorqalarini gullab-yashnatish bilan mashg‘ul.

Ma’lumotlarga razm soladigan bo‘lsak, yurtimizda dunyo bozorida xaridorgir qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish ommalashmoqda. Xususan, achchiq qalampirga jahon bozorida talab juda yuqori. Qolaversa, o‘zimizning tomorqalarda ham achchiq qalampir yetishtirishga alohida e’tibor qaratiladi. Chunki bu mahsulotga yurtimizda talab katta. Ayrim kishilarning ovqatni qalampirsiz yemasligi haqida eshitganmiz, ko‘rganmiz. Ularning dasturxonida yozda yangi uzilgan, qishda esa tuzlangan qalampir turishi shart.

Biz hikoya qilayotgan oila mo‘jazgina tomorqasiga achchiq qalampir ko‘chati ekishning hadisini olgan. Har bir sotix yerdan ikki million so‘mgacha daromad olishadi.

— Tomorqa oltin xazinamizga aylangan, — deydi Hikmatxon opa. — Yetishtirgan achchiq qalampir mahsulotimizni xalqimiz dasturxoniga tortiq qilayotganimizdan xursandmiz. Qalampir achchiq, lekin daromadi biz uchun “shirin” bo‘lyapti.

Hikmatxon opa va Yusufbek aka har yili erta bahordan tomorqasida to‘rt-besh xil qalampir yetishtirib, hosil oladi. Tomorqadagi navi va shakli har xil achchiq qalampirlarni, xalq tili bilan aytganda, “tuzlashadi” hamda urug‘likka sotishadi. Xaridorlar esa mahalladoshlari. Hikmatxon opaning tuzlangan qalampirini bir tatib ko‘rgan odam “yana bormi?” deya qaytib so‘raydi.

Mo‘jazgina tomorqada bir-biridan chiroyli qalampirlarni ko‘rib, bahri dilingiz ochiladi. Bir qalampirning shakli guldastani eslatsa, yana biri qip-qizil gilosga o‘xshaydi. Ha, insonning qo‘li gul, deb bejiz aytishmaydi-da.

— O‘g‘limning o‘limidan keyin siqilib yotib qoldim, ishga ham bora olmasdim, — deydi o‘tmishni yodga olgan Hikmatxon opa. — Poytaxtda yashaydigan singlim tasalli berib, meni ovuntirish uchun bir kuni antiqa qalampir berib yuboribdi. “Opa, qarang, ajoyib ekan, urug‘ini olib, ekib ko‘ringda”, dedi. Shundan keyin chalg‘ib, o‘zimga o‘zim tasalli berdim. Yerga, bir-biridan chiroyli qalampirlarga mehrim oshib, yildan-yilga ularni ko‘paytira boshladim. Tomorqa ishlariga berilib, dardim va tashvishimni bir oz unutib, tetiklashdim. Chol-kampir ikkimizning ishqimiz qalampirga tushib, xonadonlarda kam ekiladigan 5 xil navini ko‘paytirdik. Juda serhosil bo‘lgani uchun yaxshigina daromad oldik. Biz shu yoshimizda uddalayapmizmi, demak, qolganlar ham bemalol uddalay oladi. Buning uchun tomorqadan unumli foydalanish kerak.

— Uyimizga kelganlar tomorqamizga havas bilan qaraganda charchoqlarim unutilib ketadi. “Buncha chiroyli, qayerdan olgansiz, qanday qarayapsiz?” degan savollarni eshitsam, yetishtirayotgan qalampirlarim haqida to‘lqinlanib gapiraman, xuddi farzandini maqtagan onaga o‘xshab, — deydi Hikmatxon opa.

Opaning aytishicha, achchiq qalampir serhosil bo‘ladi. Yer tanlamaydi, ko‘p mehnat ham talab qilmaydi, vaqtida suv berib, oziqlantirib, ishlov berilsa, ko‘zlangan hosilni olish mumkin. Shuning uchun ishtiyoqi bor odam yoshmi-keksami, bu ishni bemalol uddalay olarkan. Qisqasi, odamda ishtiyoq va xohish, qolaversa, bir oz harakat bo‘lsa kifoya.

Hikmatxon opaning hikoyasini tinglab, bugungi kundagi shirin hayotiga razm solib, bir narsaga amin bo‘ldik. Demak, har qanday ishni boshlash va uddalash o‘zimizga bog‘liq ekan.

Yorqinoy QOSIMOVA,
jurnalist

ILM-FAN TARAQQIYOTI

TIBBIYOTDA YADROVIY TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH QANCHALIK MUHIM?

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Buxoro davlat universiteti va Buxoro davlat tibbiyot instituti tomonidan tashkil etilgan anjumanda yadroviy tibbiyot sohasidagi zamonaviy tendensiyalar, turli kasalliklarni tashxislash hamda davolash uchun yadro-fizikaviy usullarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish, bu borada sohadagi eng so‘nggi yutuqlar bilan tanishish, xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish xususida so‘z yuritildi.

Yadroviy usullar yordamida turli kasalliklarni tashxislash va davolash, yadro tibbiyoti ehtiyoji uchun radiofarmatsevtik dori-darmonlar ishlab chiqarish mavzusida 100 dan ortiq ma’ruza tinglandi. Turli davlatlar vakillari yadroviy tibbiyot bo‘yicha eng oxirgi tadqiqotlari natijasi bilan o‘rtoqlashdi.

Dunyo tibbiyotidagi eng so‘nggi yutuqlar bilan tanishish, tajriba almashish va ilmiy muloqot maydoniga aylangan anjuman so‘ngida Buxoro davlat universitetida yadroviy texnologiyalar kafedrasi, Buxoro tibbiyot institutida fizikaviy tibbiyot yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy ta’lim markazi ochish, ularda yadroviy tibbiyot yo‘nalishi bo‘yicha o‘qitish to‘g‘risida kelishuvga erishildi. Zero, bu yurtimizda endi rivojlanib kelayotgan yadroviy tibbiyot sohasida malakali mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti direktori Ilhom Sodiqov bilan suhbatimiz zamonaviy tibbiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri — yadroviy tibbiyotda erishilgan natijalar haqida bo‘ldi.

— O‘zbekistonda yadroviy tibbiyotning aynan qaysi yo‘nalishlari rivojlanmoqda? Bu jarayonda institutning o‘rni va roli qanday?

— Yadroviy tibbiyot institutimiz uchun yangilik emas. Bir necha o‘n yillardan beri bu sohada faoliyat ko‘rsatib kelinmoqda. Jumladan, Yadro fizikasi institutida ko‘p yillar davomida tibbiyot uchun zarur radioizotop mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha salmoqli ishlar qilinmoqda. Radiofarmatsevtik preparat shaklida tayyor mahsulot olish ham institutning asosiy yo‘nalishlaridan. Radioizotop mahsulot olishda radiokimyo laboratoriyasi, VVR-SM tadqiqot yadro reaktori, U-150 zaryadlangan zarrachalar tezlatkichi, “Radiopreparat” hamda “Tezlatkich” ishlab chiqarish korxonalari katta ahamiyatga ega. Institut “Radiopreparat” davlat shuba korxonasi bilan birga radioaktiv izotoplarning dunyodagi yetakchi eksportchilaridan biridir.

“Radiopreparat” davlat korxonasi yadroviy tibbiyot uchun preparat va birikmalar, shuningdek, radioaktiv izotopli mahsulotlar ishlab chiqaradi. Mahsulotlarni Respublikamizning bir qator klinikalariga yetkazib berish bilan bir qatorda, MDH, Yevropa davlatlari, AQSH, Kanada, Braziliya, Yaponiya, Xitoy kabi 15 mamlakatga eksport qiladi. Ularning sifati jahon standartlariga javob beradi. 1999-yili Jenevada korxonaga sifat uchun xalqaro oltin yulduz belgisi berilgani so‘zimizni tasdiqlaydi. Korxona ISO 9001:2008 sifat menejmenti tizimi xalqaro standartiga muvofiqlik sertifikatiga ega. 2020-yildan bir qator mahsulotlar JMP standarti bo‘yicha chiqarilmoqda.

Korxonada tibbiyot, biotexnologiya, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalar uchun umumiy maqsadli radionuklidlar (fosfor-32, fosfor-33, oltingugurt-35, temir-55, temir-59, yod-125, yod-131, samariy-153, lyutetsiy-177, oltin-198 va simob-203)

ishlab chiqariladi. Shuningdek, onkologik, kardiologik va endokrin kasalliklarni tashxislash hamda davolash uchun 60 dan ortiq radiofarmatsevtik preparat va 10 dan ortiq yuqumli kasallikni aniqlashda qo‘llaniladigan ekspress immun test tizimi tayyorlanadi.

Bu dori-darmonlarni mamlakatimiz klinikalarida qo‘llash borasida yaxshi natijalarga erishildi. Xususan, Nano Medical Clinic muassasasida lyutetsiy-177 PSMA-617 dorisi qo‘llangan 91 foizgacha bemorda prostata bezi saratonini samarali davolashga erishildi. Bu haqda klinika direktori Ya.Nosirxo‘jayevning konferensiyadagi ma’ruzasi yig‘ilganlarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Bunday izlanishlar natijasi konferensiyaga kelgan xorijlik olimlarda katta taassurot qoldirdi. Hozir dunyo bo‘yicha foydalanilayotgan yod-125 izotopi asosidagi dori-darmonning 80 foizi institutimizda ishlab chiqarilishi ularni hayratga soldi. Bundan tashqari, fosfor-32, fosfor-33 radioizotop mahsulotlarining 60-70 foizgacha qismi O‘zbekistonda ishlab chiqariladi. Konferensiyada “Bizda ham xuddi shunday vosita ishlab chiqariladi. Bunday bo‘lishi mumkin emas”, degan e’tirozlar ham yangradi. “Qancha ishlab chiqaryapsiz?” deb so‘raganimizda, “Bir yilda 50 kyuri ishlab chiqaramiz”, degan javob bo‘ldi. “Institutimizda bir oyda 100 kyuri ishlab chiqariladi”, deganimizdan keyin boshqa savolga o‘rin qolmadi. Bu mamlakatimizda yadro tibbiyoti rivojlanayotgani, sohada boshqalar qatori dadil odimlayotganimizga bir misol.

Biz hozir ishlab chiqarayotgan vositalarimizdan foydalanib, ularni tashxis va davolash jarayonida qo‘llashda bir oz ortda qolyapmiz. Rivojlangan davlatlar bu borada juda ildamlab ketgan. Anjumanga kelgan olimlar O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan dorilardan davolash va tashxis jarayonida samarali foydalanayotganini aytdi. Tan olish kerak, bu soha ularda ancha rivojlangan. Biz bu tajribani mamlakatimizda ham qo‘llasak, foydadan xoli bo‘lmaydi. Aholi sog‘lig‘ini mustahkamlash, hayot tarzi sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

— Tibbiyotda yadroviy texnologiyalarni qo‘llash qanchalik muhim? Ular yordamida tashxis qo‘yish imkoniyati qay darajada?

— Yadroviy tibbiyot ikkita fanning o‘zaro birlashuvidan tashkil topgan. Bular — yadro fizikasi va tibbiyot. Yadro fizikasi eng yosh fanlardan. Uning rivojlana boshlaganiga hali bir asr ham bo‘lgani yo‘q. Tibbiyot esa eng qadimgi va insonparvar fan yo‘nalishlaridan biridir. Mana shu ikki fanning birlashuvi, albatta, katta samara ko‘rsatyapti. Chunki aynan yadroviy tibbiyot usullari kasallikni eng boshlang‘ich davridanoq aniqlash imkoniyatini beradi. Sezgirligi va organizmdagi turli patalogiyalarni ko‘rish imkoniyati boshqa usullarnikiga nisbatan ancha yuqori. Turli o‘sma kasalliklarini erta aniqlashga yordam beradi. Shuning uchun bu juda progressiv, jadal rivojlanayotgan usullardan. O‘zbekistonda hozir yadroviy tibbiyotning rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri pozitron-emission tomografiya. Yaqin yillargacha bu yo‘nalish umuman yo‘q edi. Hozirgi kunda yurtimizda ishlab turgan uchta pozitron-emission tomografiya (PET) mavjud. Ular kasalliklarga erta va aniq tashxis qo‘yishda samarali ishlatilyapti. O‘ylaymanki, yaqin yillarda bu yo‘nalish yanada rivojlanadi.

> **Eng oxirgi ishlab chiqargan dorilarimizdan biri — lyutetsiy-177-PSMA-617 prostata bezi saratoni va metastazalarini davolashda samarali ishlatilyapti. O‘tgan yilning oktabridan shu kunga qadar saratonga chalingan og‘ir ahvoldagi 35 bemorda qo‘llandi. Davolashning to‘rt kursidan keyin bemorlar asta-sekin sog‘lom hayotga qaytdi.**

Mamlakatimizda saraton kasalligini davolashga katta e’tibor qaratilyapti. Har bir viloyatda PET markazi faoliyati yo‘lga qo‘yilishi vazifasi belgilangan. Zero, aniq qo‘yilgan tashxis samarali davolashning asosidir. Bemor aniq tashxis asosida davolansa, bu samara berishi shubhasiz. Shu bois, pozitron-emission tomografiyada tashxis qo‘yish usulidan yanada kengroq foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

— Bu usul yurtimizdagi qaysi klinikalarda faol qo‘llanyapti?

— Hozir M.Fedorovich nomidagi klinik sanatoriyda tashxis qo‘yishda yadroviy tibbiyotning barcha usullaridan keng foydalanilyapti. New Life Medical, NANO Medical Clinic klinikalarida PET tomografiyasi va radionuklid diagnostikasi yo‘lga qo‘yilyapti. Bu yerda qator radioizotoplardan foydalangan holda turli kasalliklar davolanyapti. Masalan, samariy-153 oksabifor, lyutetsiy-177 izotopidan olingan bir necha xil doridan, yod-131, yod-125 dan har xil kasalliklarni tashxislash va davolashda keng foydalanilyapti.

Eng oxirgi ishlab chiqargan dorilarimizdan biri — lyutetsiy-177-PSMA-617 prostata bezi saratoni va metastazalarini davolashda samarali ishlatilyapti. O‘tgan yilning oktabridan shu kunga qadar saratonga chalingan og‘ir ahvoldagi 35 bemorda qo‘llandi. Davolashning to‘rt kursidan keyin bemorlar asta-sekin sog‘lom hayotga qaytdi.

Yurak-qon tomir kasalliklari, bosh miya, jigar, taloq, buyrak yoki butun tananing qon tomirlari tizimi, skeletdagi turli patologik o‘zgarishlarni aniq ko‘rsatib, tashxis qo‘yadigan technetium-99M generatori institutimizda 40 yildan beri ishlab chiqarilib, klinikalarga yetkazib beriladi.

Institut O‘zbekiston klinikalarini samariy-153 oksabifor izotopi bilan ham ta’minlaydi. Bu ancha qimmat preparat bo‘lib, Fransiyada bir dozasi 2,5 ming yevro qiymatida ishlab chiqariladi. Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lmagan davlatlarga 2 ming 700 yevrodan sotiladi. Institutimiz shu dorini klinikalarimizga 100 yevro ekvivalentidagi milliy valyuta evaziga yetkazib beryapti. Bu dunyo bozoriga nisbatan 25 barobar arzon. Fransiya, Germaniya, Rossiya, Turkiyadan bir qancha bemorlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri institutga qo‘ng‘iroq qilib, shu dorini qanday sotib olsak bo‘ladi, kimga buyurtma berishimiz mumkin, degan savollar bilan murojaat qiladi.

Bu radioaktiv dori sanalgani uchun dorixonada erkin sotilmaydi. Undan faqat shifokor nazoratida, statsionar sharoitda foydalanish mumkin. Shu bois, klinikalarga shartnoma asosida yetkazib beriladi. Biz ularga izotop mahsulotini shartnoma asosida xarid qilgan klinikalar manzilini beramiz. Hozir shu klinikalarga chet eldan ham ko‘plab bemorlar davolanish uchun kelayotganidan xabarimiz bor.

Samariy oksabifor preparatiga ilgari faqat suyak metastazasida og‘riqni qoldiradigan vosita deb qaralgan bo‘lsa, hozir uning terapevtik xususiyatlari ham aniqlandi. NANO Medical Clinic klinikasida davolash uchun keng ishlatilyapti.

Hozir AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Niderlandiya, Chexiya, Yaponiya, Hindiston, Xitoy, Eron, Turkiya, Misr, Argentina, Braziliya kabi ko‘plab davlatlarga mahsulotlarimizni yetkazib beryapmiz.

— O‘zbekistonda AES qurilishi rejasi bor. AES yadro texnologiyalari yadroviy tibbiyot rivojida qanday o‘rin tutadi?

— Yadro texnologiyalari juda keng yo‘nalishlarni qamrab oladi. Ular ichida eng yirigi, aytish mumkinki, tojdori — yadro energetikasi. Chunki yadro energetikasi bir necha yil burun Xalqaro atom energiyasi agentligi (MAGATE) tomonidan “yashil” energetika sirasiga kiritildi. Ilgari “yashil” energetika shamol, quyosh va suvdan iborat uchburchak bo‘lsa, hozir yadro energetikasi ham unga kiritilib, kvadrat shaklini oldi. Chunki yadro energetikasi ekologik toza va eng muhimi, doimiy barqaror elektr energiyasini yetkazib beruvchi manbadir. Doim bir xil, ob-havo va boshqa tashqi muhitga bog‘liq bo‘lmagan holda, turg‘un ravishda energiya ishlab chiqaradi.

MAGATEning baholashicha, yaqin kelajakda yadro energetikasi asosiy energetika manbalaridan biriga aylanadi. Shuning uchun O‘zbekistonda AES qurish to‘g‘risidagi qaror muhim ahamiyatga ega. Bu, albatta, shaxsiy fikrim.

Odamlarda qandaydir radiofobiya — radiatsiyadan qo‘rqish bor. Institutimiz 60 yildan beri Toshkentdan 30 kilometr narida faoliyat yurityapti. Yadro reaktori ishlab turibdi, biroq hozirgacha atrof-muhitga biror zarar yetkazgani yo‘q. Qurilayotgan boshqa atom stansiyalarida ham xavfsizlik masalasi juda muhim. Misol uchun, hozirgacha dunyo bo‘yicha 450 ta reaktor ishlab turgan bo‘lsa, 1954-yili birinchi atom stansiyasi ishga tushirilgan, deydigan bo‘lsak, 70 yilda atigi ikkita yirik hodisa bo‘lgan — Chernobil va Fukusima. Bunday hodisa boshqa sohalarda ham yuz berishi mumkin. Lekin bu aks sado beradigan mavzu bo‘lgani uchun odamlarda radiofobiyani qo‘zg‘atdi. Shunga qaramay, yadro energetikasiga hozir eng xavfsiz energiya manbalaridan biri deb qarash mumkin. Nega? Chunki hozir qurilayotgan atom reaktorlari tannarxining uchdan bir qismi xavfsizligini ta’minlashga yo‘naltirilyapti. Xavfsizlik, xavfsizlik, yana xavfsizlik — atom energetikasining shiori. Shuning uchun hozirgi stansiyalarning xavfsizligi eng yuqori darajada.

Bu o‘z o‘rnida yadroviy tibbiyot rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Rossiyadagi bir qancha AES reaktorlarida tibbiyot uchun kerakli radioizotoplar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Ular katta quvvatga ega. Shunday yuqori quvvatga ega reaktorlarda juda ko‘p miqdorda izotop ishlab chiqarish mumkin.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI

QISHLOQ XO‘JALIGI ILMI to‘qlik, farovonlik va obodlik asosidir

Insoniyat bugun barcha soha rivojlangan XXI asrda yashayapti. Lekin oziq-ovqat muammosi, agrar soha masalalari yangi asrda ham dolzarbligicha qolgan. Dunyo aholisini ocharchilik, to‘yib ovqatlanmaslik, ichimlik suv kabi muammolar tobora keng qamrab olmoqda. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, ushbu inqiroz ko‘plab mojarolar, iqlim o‘zgarishi, qurg‘oqchilik va iqtisodiy hisob-kitoblardagi xatoliklar natijasida ancha vaqtdan beri yetilib kelayotir.

Qolaversa, COVID-19 pandemiyasi hamda dunyo mamlakatlarining bir-biriga oziq-ovqat va boshqa turdagi sanksiyalarni tartibsiz joriy qilishi ham masalani yanada murakkablashtirib yubordi. Bu esa, o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxining keskin oshishiga sabab bo‘lmoqda. Ma’lumotlarga qaraganda, 2030-yilga borib, oziq-ovqat mahsulotlarining narxi 35 foizgacha qimmatlashadi. Shu sababli, oxirgi yillarda BMT va boshqa yirik jahon tuzilmalarida oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha yirik konferensiya hamda boshqa tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda.

Bunday mahsulotlar yetishtirish yurtimizda ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Zero, O‘zbekiston ham qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi va eksport qiluvchi davlatlardan biri sanaladi. Sentabr oyida Samarqand shahrida oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha o‘tkazilgan xalqaro konferensiya fikrimiz tasdig‘idir. O‘zbekiston Respublikasi va BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining texnik ko‘magida tashkil etilgan mazkur anjumanda 30 dan ortiq davlatdan 2 mingdan ziyod mutaxassis ishtirok etdi.

Mazkur forumda mamlakatimizning agrar salohiyati yaqqol namoyon bo‘ldi. Tadbirda qatnashgan 26 mamlakatdan kelgan 100 dan ziyod kompaniya vakillari O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi imkoniyati bilan yaqindan tanishib, hamkorlik o‘rnatishga katta qiziqish bildirdi. Mamlakatimizdagi qator oliy ta’lim muassasalari rahbarlari va professor-o‘qituvchilari bilan birga Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti mas’ullari ham anjumanda qatnashib, Finlyandiya, Polsha, Litva, Malayziya kabi mamlakatlarning sohaga ixtisoslashgan OTMlari bilan hamkorlik shartnomalari imzolashga erishdi. Bu kelgusida qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni joriy etadigan malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Hozir jahon oziq-ovqat xavfsizligi mo‘tadil yoki o‘tkir bo‘lmagan sharoitda 2,3 milliard inson yashayapti. Shundan 556 millioni (25 foizi) Osiyo qit’asida. Dunyoda oxirgi yillardagi geosiyosiy vaziyat bilan bog‘liq holat oziq-ovqat xavfsizligi uchun ham yetarli tahdidlar paydo qildi. Ayniqsa, Afrika qit’asidagi ocharchilik holati yildan-yilga yomonlashib bormoqda. Albatta, bu xavf-xatarlarning barchasi ham O‘zbekiston uchun xos emas. Masalan, yurtimizga ocharchilik xavf solayotgani yo‘q. Lekin yerning sho‘rlanishi, sug‘orish uchun suv resurslari kamayib borayotgani, cho‘llanish, qurg‘oqchilik kabi tahdidlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishdagi asosiy muammolarga aylanmoqda.

Oxirgi yillarda yurtimizda qishloq xo‘jaligiga yangicha yondashuv tizimi joriy qilindi. Yaqin-yaqingacha saqlanib kelgan paxta yakkahokimligiga barham berilib, yerdan samarali foydalanishga e’tibor qaratildi. Birinchi marta davlat qishloq xo‘jaligi yeri aholiga uzoq yillik ijara asosida bo‘lib berilmoqda. Paxta va g‘alla klasterlari tashkil etilib, yuqori hosildorlik va natijadorlikka erishilmoqda. Xususan, bu yil birinchi marta g‘alladan 8 million tonnadan ziyod hosil olindi. Dehqon va fermerlarning manfaatdorligi oshishi hisobiga yerga munosabat o‘zgaryapti. Natijada yerning meliorativ holati yaxshilanmoqda. Tomchilab sug‘orish tizimi keng joriy etilmoqda. Yerga agrotexnik ishlov berish uchun xorijdan zamonaviy texnikalar olib kelinayotganidan ham xabardormiz. Dehqon-fermerlar yetishtirgan mahsulotlarini o‘zi xorijga eksport qilmoqda. Ularga bojxona va karantin xizmatlari ko‘rsatish tizimi tubdan o‘zgargan. Eksportda transport xarajatining bir qismini qoplab berish amaliyoti joriy qilindi. Bir so‘z bilan aytganda, ularga qulay sharoitlar yaratib berilyapti.

Surxondaryo qulay geografik joylashuvi, unumdor tuprog‘i, suv zaxiralari mavjudligi bilan alohida ahamiyatga ega. Agrar sohadagi keng islohotlar viloyat qishloq xo‘jaligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Chunonchi, yangi turdagi dehqon-fermer xo‘jaliklari tashkil etilib, ekin turlari bozor munosabatlari asosida yetishtirilyapti. Mahsulotlar turi ko‘payib boryapti. Bu esa ichki bozorni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash va xorijga ham eksport qilishga yo‘l ochadi. Voha dehqonlari allaqachon eksportbop mahsulot yetishtirishning hadisini olgan. Bunda davlat tomonidan logistika, bojxona, karantin sohasida dehqon-fermerlarga yaratib berilayotgan katta imkoniyatlar muhim omil bo‘layotir.

Shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish maqsadida kam ta’minlangan oilalarga yer ajratib berilyapti. Ular yerdan unumli foydalanib, ikki-uch martagacha hosil olyapti. Bundan tashqari, hududda takroriy ekin ekishga ham alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, viloyatda 2023-yilda g‘alladan bo‘shagan yerning 90 ming 800 gektariga takroriy ekin ekildi. Shundan klaster va fermer xo‘jaligi o‘z ehtiyoji uchun 31 ming 191 gektarga, fermer xo‘jaligi a’zolari 49 ming 550 gektarga, “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”da ro‘yxatda turganlar 1 ming 21 gektarga takroriy ekin ekkan.

Surxondaryo viloyatida 2023-yilda 390 ming 141 tonna oziq-ovqat mahsuloti realizatsiya qilish rejalashtirilgan. Bunda ichki iste’mol uchun 134 ming 599 tonna, eksport uchun 60 ming 472 tonna, qayta ishlash korxonalariga 79 ming 979 tonna, zaxiraga 79 ming 589 tonna, Toshkent shahri va boshqa yarmarkalarga yuborish uchun 35 ming 503 tonna oziq-ovqat mahsuloti yetishtirish ko‘zda tutilgan.

Vohaning iqlimi dehqonchilik uchun juda qulay, mahsulotlari erta pishadi. Shu bois, so‘nggi besh yilda meva-sabzavot asosiy ekin maydoni 2,5 barobar kengaytirildi. Bu yil aholi uchun yana 8 ming 500 gektar yer ajratilmoqda. Dehqonlarga sharoit yaratib, suv ta’minotini yaxshilab, oziq-ovqat mahsulotlari hajmini 2 barobar oshirish va eksport qiymatini 250 million dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Bu yo‘nalishda, ayniqsa, 2021-yildan boshlab Surxondaryo tajribasi asosida yoshlarga 30 sotixdan yer ajratib berilayotgani juda katta voqea bo‘ldi. Viloyatda 2023-yilda ham “Yoshlar daftari”da turgan 2 ming 802 nafar fuqaroga E-AUKSION elektron savdo platformasi orqali 1008,44 gektar yer maydoni ajratib berildi. Hozir yoshlar yetishtirilgan hosilni yig‘ishtirish bilan band.

Abdug‘affor JO‘RAYEV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

21-OKTABR — O‘ZBEK TILI BAYRAMI KUNI

O‘zbek tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, o‘zbek tilini raqamlashtirish borasida belgilab berilgan vazifalarning ijro qilinishi natijasida universitet nafaqat o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha klassik universitet, balki raqamlashtirilgan smart-universitet sifatida ham taraqqiy topib, rivojlanib bormoqda.

O‘ZBEK TILINI RAQAMLASHTIRISH *yangi bosqichda*

Mustaqillik davrining eng ulug‘ imkoniyat va ne’matlaridan biri o‘zbek tilining o‘z yerida obro‘-e’tibor topishi, davlat tili maqomini olishidir. Shunga ko‘ra, bugungi kunda o‘zbek tili milliy mafkuramizning tarkibiy qismlaridan va mustaqilligimizning bosh belgilaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Oxirgi yillarda o‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi, obro‘si, qo‘llanishini kengaytirishda bir necha muhim, bir-birini to‘ldiruvchi, mantiqiy davom ettiruvchi hujjatlar — Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari va 2020-yil 10-aprelda “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi muhim tarixiy, siyosiy, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

2020-yil 20-oktabrdagi farmonga ko‘ra:

a) 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi;

b) 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020-2022-yillarda amalga oshirish dasturi;

d) 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari tasdiqlandi. Konsepsiyaning asosiy yo‘nalishlarida o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish borasida bir qancha ustuvor vazifalar bajarilishi nazarda tutilgan.

Mazkur muhim hujjatlarda aks ettirilgan ustuvor vazifalarni hayotga tatbiq qilishda o‘zbek tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, ya’ni o‘zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘zida jamlagan elektron ko‘rinishdagi o‘zbek tili milliy korpusini yaratish, o‘zbek tilini internet tarmog‘ida ommalashtirish, unda munosib o‘rin egallashini ta’minlash, dasturiy mahsulotlarning o‘zbekcha ilovalarini yaratish, o‘zbek tilini o‘rgatuvchi kompyuter dasturlarini keng miqyosda amaliyotga tatbiq qilish, o‘zbek tilidagi matnlar tahririga mo‘ljallangan kompyuter dasturlarini yaratish, o‘zbek tilidan jahonning yetakchi xorijiy tillariga va xorijiy tillardan o‘zbek tiliga tarjima qiluvchi kompyuter dasturlarini ishlab chiqish, davlat tilida yaratilgan dasturiy ta’minotlarni yagona sertifikatlash va standartlashtirish xizmatini joriy etish, yetakchi xorijiy ijtimoiy tarmoqlar interfeyslarining tillari tarkibiga o‘zbek tilini qo‘shish masalasini o‘rganish kabilar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu vazifalar ijrosi yuzasidan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida qator ishlar amalga oshirib kelinyapti. O‘zbek tili ta’limi fakulteti kompyuter lingvistikasi kafedrasi huzurida Kompyuter lingvistikasi ilmiy-amaliy markazi faoliyat ko‘rsatmoqda. Markazda kompyuter lingvistikasi ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi talabalari ustozlari ilmiy rahbarligida filologik masalalarni modellashtirish, ularning ma’lumot va bilimlar bazasini tadqiq etish, sun’iy intellekt uchun tilni modellashtirish usullarini yaratadi.

Shuningdek, ular leksik ma’lumotlar bazalari — lingvistik ontologiya, axborot-qidiruv tizimlari, kompyuter leksikografiyasi, mashina tarjimasi, kompyuter lingvistikasi terminologiyasi, kompyuter lingvodidaktikasi muammolari tadqiqi bilan shug‘ullanib, lisoniy raqamli texnologiyalar ishlanmalarini yaratish bo‘yicha izlanishlar olib bormoqda. Talabalar tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), avtomatik tarjima, til korpuslarini yaratish bo‘yicha amaliy masalalarni yechish, filologik axborot tizimlarini ishlab chiqish, qidiruv tizimlari, kompyuter grafikasi, ma’lumotlar bazasini yaratish va ulardan foydalanish bo‘yicha bilim, ko‘nikma hamda malakalarga ega.

Bugungi kunga kelib, universitetda bajarilgan quyidagi amaliy ishlar sanab o‘tilgan ustuvor vazifalarni bajarishga, ya’ni o‘zbek tilini to‘liq raqamlashtirishga salmoqli hissa qo‘shmoqda:

1. Sun’iy intellekt metodlari asosida o‘zbek tili leksik birliklarini (so‘z, ibora va boshqalar) avtomatik-semantik tahlil qilish imkoniyati yaratildi (http://uznatcorpara.uz/uz/Similar).

Bunda o‘zbek tili korpusidagi matnlardan muayyan so‘zni qidirish asosida bu so‘zning semantik maydonini hosil qilish mumkin. Semantik maydonda qidirilgan so‘zning assotsiativ birliklari, sinonim, antonim, graduonim va valentlikni hosil qiluvchi birliklari to‘planadi.

Bir milliarddan ko‘proq gapni qamrab olgan o‘zbek tili korpusi asosida o‘zbek tili birliklarini POS teglash yarim-avtomatik usulda amalga oshirildi.

Sun’iy intellekt va qoidalarga asoslangan yondashuv bilan erishilgan bu natijalarning aniqlik darajasi 95,5 foizga teng. Bugungi kunda til korpusida matnlardagi leksik birliklar: so‘z, ibora, NER (nomlangan obyekt)larni avtomatik teglash uchun mashinali o‘qitish usuli ham qo‘llanmoqda.

O‘zbek tili birliklarini semantik tahlil qilishga sun’iy intellektni qo‘llash orqali o‘zbek tilidagi istalgan so‘zning o‘xshash birliklari (word embedding)ni aniqlash funksiyasi yo‘lga qo‘yildi.

Mazkur dasturiy vosita (natija)larning amaliy ahamiyatini quyidagicha ko‘rsatish mumkin. Ular:

o‘zbek tili birliklarini turli aspektda tahlil qilishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun ochiq manba sifatida xizmat qiladi;

imloni tekshirish vositalarini ishlab chiqishda ma’lumotlar bazasi va mashinali o‘qitish asosidagi ma’lumotlar bazasi vazifasini bajaradi;

o‘zbek tili savol-javob tizimini ishlab chiqishda ma’lumotlar bazasi rolini bajaradi;

o‘zbek tilini ona tili sifatida o‘qitishda katta bazadagi o‘quv materiali sifatida foydalanish imkonini beradi;

o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish uchun o‘zbek tilining boy leksik imkoniyatlarini ko‘rsatib beruvchi ma’lumotlar bazasi bo‘lib xizmat qiladi.

Masalan, o‘zbek tilini mustaqil o‘rganayotgan xorijlik bu tizimlarda so‘rovni amalga oshirib, bitta sifat yoki ot turkumiga mansub so‘zning assotsiativ bog‘liq birliklariga qidiruv berar ekan, u tasavvur qilmagan birliklar ham korpus interfeysidan o‘rin oladi. Bunga u bor-yo‘g‘i bir necha soniyalarni bag‘ishlaydi.

2. Universitetda yaratilgan vositalar sirasida “O‘zbek tilining morfologik analizatori” (http://www.uznatcorpara.uz) ham muhim amaliy ahamiyatga egadir.

Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate)da o‘zbek tili matnlarini morfologik jihatdan avtomatik ishlov berish vositasi — o‘zbek tili morfologik analizatori vujudga kelishi natijasida o‘zbek tilining kompyuter ishlovi borasida quyidagi muammolar yechimi topiladi:

— o‘zbek tili leksikasi morfologik jihatdan tasniflanadi;

— Google, Yandex kabi qidiruv tizimlari, Google translate tarjimonida morfologik birliklarni to‘g‘ri tahlil qilish jihatdan avtomatik ishlov berish sifati oshadi;

— mashina tarjimasi sifati yaxshilanadi;

— o‘zbek tilida turli korpuslar yaratish, korpus birliklariga avtomatik morfologik, semantik ishlov berish imkoni paydo bo‘ladi.

3. Universitet olimlari va tadqiqotchilari tomonidan tayyorlangan “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasi” (https://uzlang.navoiy-uni.uz/about) loyihasi xalqaro ahamiyatga ega bo‘lib, u xorijiy tajribalarni milliy tadqiqotlarga qo‘llash natijasida yuzaga keldi. Mazkur platforma Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi huzuridagi milliy madaniy markazlar (qozoq, qirg‘iz, tatar-boshqird, turk, ozarbayjon milliy madaniy markazlari) hamda xorijdagi vatandoshlarning jamoat tashkilotlari uchun ham zarur manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Zero, elektron platforma mamlakatimizda turk, ozarbayjon, qozoq, qirg‘iz, tatar tilida so‘zlashuvchi aholi uchun o‘zbek tili bilan birga o‘z ona tillarini, qardosh turkiy xalqlar tilini o‘rganishga mo‘ljallangan. Unda o‘zbek, turk, ozarbayjon, qozoq, qirg‘iz, tatar tilidagi lingvodidaktik materiallar, audio va videoroliklar, fotolar, matnlar, dialog-suhbatlar namunalari, har bir til bo‘yicha lug‘atlar (tarjima lug‘atlari, sinonim so‘zlar, faol so‘zlar, milliy-madaniy bo‘yoqdor so‘zlar lug‘atlari) jamlangan. Platformada audio-video, raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanilgan. Undan turkiy tillarni o‘rganishni maqsad qilgan istalgan inson, oliy ta’lim tizimidagi turkiy filologiya mutaxassislari ta’limiy resurs sifatida foydalanishi mumkin. Shuningdek, u O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan qozoq, turk, ozarbayjon, qirg‘iz, tatar millati vakillariga o‘z ona tillarini o‘rganishi uchun shu paytgacha mavjud bo‘lmagan yaxlit elektron resursga ehtiyojni qoplash vazifasini bajaradi. Eng muhimi, mamlakatimizda qardosh turkiy xalqlar tillarini targ‘ib qilishga bag‘ishlangan elektron platforma orqali ichki va tashqi turizmni rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda.

2023-yildan boshlab universitetda jahon global tarmog‘ida o‘zbek tilidagi materiallar soni va sifatini oshirish, o‘zbek xalqining milliy o‘ziga xosligini ifodalovchi tushunchalarning batafsil izohini global tarmoqqa joylash bo‘yicha “O‘zbek milliy madaniyatiga xos atamalarga oid maqolalar bazasini yaratish” (Vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida) mavzusidagi, “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish”, “Bolalar adabiyoti.uz elektron platformasi va uning mobil ilovasini yaratish” singari loyihalar ham o‘z faoliyatini boshlab, amaliy jihatdan bu boradagi ko‘plab muammoli masalalarga yechim topishda qo‘l kelmoqda.

4. Universitetning amaliy ishlaridan yana biri “O‘zbek tilining ta’limiy korpusi” (http://uzschoolcorpara.uz/) bo‘lib, bu korpus ona tili va adabiyot, davlat tili o‘qituvchilari va o‘zbek tili, adabiyoti, o‘zbek xalqining tarixi, madaniyatini o‘rganayotganlar uchun axborot bazasi — muhim metodik adabiyotlarning yig‘indisi, zaruriy elektron manbadir. Zero, ta’limiy korpusdan didaktik ahamiyatga ega bo‘lgan resurslar — elektron darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv-uslubiy majmualar, mashg‘ulotlar ishlanmalari, mashqlar, glossariylar, virtual laboratoriyalar, ko‘rgazmalar, shuningdek, onlayn ensiklopediyalar, lug‘atlar, geoaxborot (kartografik) tizim, ko‘rgazmali qo‘llanmalarning raqamli kutubxonasi, qo‘shimcha axborot materiallari va elektron davriy nashrlar hamda fanni o‘zlashtirish bo‘yicha o‘z-o‘zini baholash tizimi — onlayn testlar majmualari o‘rin olgan. Til ta’limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining eng samarali elektron manbalari sifatida elektron lug‘at, o‘rganilayotgan tilda multimedia materiali, ixtisoslashtirilgan o‘quv resursi, elektron aloqa vositasi farqlanadi. Ta’limiy korpus ona tili hamda xorijiy tilni o‘rganishda birdek ahamiyatli. Tilni o‘rgatishda lug‘at boyligining kattaligini ko‘rsata olish, so‘zning qo‘llanish imkoniyatini u yoki bu grammatik konstruksiya orqali tushuntirish uchun misollar massivini ko‘rsatishda mazkur korpus juda qo‘l keladi. Til ta’limi uchun muhim bo‘lgan misolning doimiy yangilanib borishi, buni aks ettirib turish xususiyati hamda imkoniyati faqat korpusda mavjud. O‘qituvchi yangi, ishonarli, cheksiz hamda xilma-xil misollarni shu yerdan topa oladi, topshiriq, mashqlarni belgilashda qiynalmaydi, bir necha daqiqada mavzu bo‘yicha yangi-yangi misollardan iborat topshiriqlarni tayyorlay oladi.

Xullas, o‘zbek tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, o‘zbek tilini raqamlashtirish borasida belgilab berilgan vazifalarning ijro qilinishi natijasida oliygoh nafaqat o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha klassik universitet, balki raqamlashtirilgan smart universitet sifatida ham taraqqiy topib, rivojlanib bormoqda. Shunga ko‘ra, universitetning ustuvor yo‘nalishlariga mos tarzda milliy tilimiz nufuzini yanada oshirish xalqaro hamjamiyatda ham O‘zbekistonning ijobiy imijini shakllantirishga hissa qo‘shadi, deb umid qilamiz.

Zero, oliy ta’limni rivojlantirishga qaratilgan oqilona siyosat va to‘g‘ri strategiya o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi oshishi hamda xalqaro maqomi kuchayishiga xizmat qiladi.

Saodat MUHAMEDOVA,
filologiya fanlari doktori, professor,
Botir ELOV,
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent,
Shahlo HAMROYEVA,
filologiya fanlari doktori, dotsent

O‘zbek tili milliy korpusi



“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DUK

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** Г-1046.
43312 нусхада босилди.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Shahzod G‘afforov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:00

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05